



YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

PARLAMENT SAYLOVLARI
2024-YIL 27-OKTABR

DIIHB Saylovni kuzatish missiyasi
Yakuniy hisobot



Varshava
2024-yil 26-fevral

MUNDARIJA

I.	QISQACHA MA'LUMOT	1
II.	KIRISH VA MINNATDORCHILIK SO'ZLARI	4
III.	DASTLABKI SHART-SHAROITLAR VA SIYOSIY JIHATLAR.....	5
IV.	HUQUQIY MEXANIZMLAR VA SAYLOV TIZIMI.....	7
V.	SAYLOVNI BOSHQARISH.....	9
VI.	SAYLOVCHILARNI RO'YXATGA OLIISH.....	12
VII.	NOMZODLARNI RO'YXATGA OLIISH	13
VIII.	SAYLOVOLDI KAMPANIYASI.....	14
IX.	SAYLOV KAMPANIYALARINI MOLIYALASHTIRISH.....	16
X.	OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI.....	18
	A. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MUHITI	18
	B. HUQUQIY BAZA.....	18
	C. OAV MONITORINGI NATIJALARI.....	20
XI.	SAYLOVDA NIZOLARNI HAL QILISH MASALASI.....	21
XII.	SAYLOVLARNI KUZATISH	23
XIII.	MUDDATIDAN OLDIN OVOZ BERISH VA SAYLOV KUNI.....	23
	A. OCHILISH TADBIRLARI VA OVOZ BERISH	24
	B. OVOZ BERISH JARAYONLARINING YOPILISHI VA OVOZLARNI SANASH.....	25
	C. OVOZ BERISH NATIJALARINI JADVALGA SOLISH VA NATIJALARNI E'LON QILISH	26
XIV.	TAVSIYALAR	26
	A. USTUVOR MAZMUNDAGI TAVSIYALAR.....	27
	B. BOSHQA TAVSIYALAR	27
	I ILOVA: SAYLOVNING YAKUNIY NATIJALARI	30
	II ILOVA: XALQARO SAYLOVLARNI KUZATISH MISSIYASI KUZATUVCHILARI RO'YXATI	31
	DIHQB HAQIDA	38

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PARLAMENT SAYLOVLARI
2024-yil, 27-oktabr

DIIHB Saylovni kuzatish missiyasining yakuniy hisoboti¹

I. QISQACHA MA’LUMOT

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining (MSK) taklifiga binoan, 2024-yil 27-oktabrdagi parlament saylovlari jarayonini kuzatish uchun YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi (DIIHB) o‘zining Saylovni kuzatish missiyasini (SKM) yubordi. DIIHB SKM saylov jarayonining YXHT majburiyatlari, demokratik saylovlar bo‘yicha boshqa xalqaro majburiyatlar va standartlar, shuningdek, milliy qonunchilikka muvofiqligini aniqlash maqsadida o‘tkazildi. Saylov kuni DIIHB SKMga YXHT Parlament assambleyasi delegatsiyasi Saylovlarni kuzatish bo‘yicha xalqaro missiyani (SKXM) tuzish uchun qo‘shildi.

SKXM tomonidan 2024-yil 28-oktabrda e‘lon qilingan Dastlabki natijalar va xulosalar to‘g‘risidagi bayonotda xulosa qilinishicha, “O‘zbekistonda 27-oktabr kuni bo‘lib o‘tgan Parlament saylovlari davomli islohotlar, jumladan, Konstitutsiyaga jiddiy o‘zgartirishlar kiritish sharoitida bo‘lib o‘tdi, biroq siyosiy muhit erkinlikni cheklaydigan darajada qolgan holda, saylovchilarga chinakam tanlash imkoniyatini bermadi”. Saylov tizimi bosqichma-bosqich rivojlanib, saylovlarga texnik jihatdan puxta tayyorgarlik ko‘rilgan bo‘lsa-da, siyosiy partiyalarni ro‘yxatga olish, saylanish huquqi, saylovoldi kampaniyasini moliyalashtirishning shaffofligi, saylovning fuqarolar tomonidan kuzatilishi va saylov uchastkasi natijalarini e‘lon qilish kabi sohalarda demokratik saylovlarning xalqaro standartlariga javob berish bilan bog‘liq jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda. Uyushmalar va tinch yig‘ilishlar erkinligi hamda so‘z erkinligi borasidagi asosiy huquqlar qonun hujjatlarida ham, amaliyotda ham nomutanosib ravishda cheklanganligicha qolmoqda. Quvonarlisi, xotin-qizlarning nomzodlar orasidagi va saylov boshqaruvidagi vakilligi ancha yaxshilandi. Ro‘yxatga olingan beshta siyosiy partiyaning barchasi qonun asosida erkin va teng sharoitlarda saylovoldi kampaniyalarini olib borishga muvaffaq bo‘ldi, biroq ularning saylovoldi kampaniyalari vazmin ruhda bo‘lib, hukmron partiya yoki bir-birining siyosatiga jiddiy e‘tirozlar bildirmadi. OAVda saylovlarni yoritish so‘z erkinligi cheklovlari bilan olib borildi, oqibatda saylovchilar turli nuqtai nazarlardan foydalanishlarining deyarli imkoni bo‘lmadi. Saylov kuni tinch va tartibli o‘tdi, biroq ko‘plab qonunbuzarliklar, xizmat mavqeini suiiste‘mol qilish holatlari, protsessual va texnik nosozliklar jarayonga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ovoz berish, ovozlarni sanab chiqish va natijalarni jadvallarga umumlashtirish jarayonida muhim kafolatlar ko‘pincha e‘tibordan chetda qolib, jarayonning halol bo‘lganligi va shaffofligiga putur yetkazgan.

2024-yil 27-oktabrdagi parlament saylovlari 2017-yilda boshlangan va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, davlat boshqaruvi, sud tizimi va asosiy erkinliklarni hurmat qilish kabi sohalarni qamrab olgan islohotlar dasturi fonida bo‘lib o‘tdi. 2023-yilgi Konstitutsiyada inson huquqlari qoidalari sezilarli darajada yaxshilanganiga qaramay, fuqarolarning YXHT majburiyatlari va xalqaro standartlarga muvofiq siyosiy hayotda to‘liq ishtirok etishi, xususan, so‘z erkinligi, uyushmalar va tinch yig‘ilishlar erkinligini amalga oshirish borasidagi asosiy huquqlarga hurmat bilan bog‘liq holda, qonunchilik va amalda nomutanosib tarzda cheklanganligicha qolmoqda. Saylov jarayonlari davomida hukumat siyosatini qo‘llab-quvvatlagan beshta ro‘yxatga olingan siyosiy partiya saylovchilarga haqiqiy tanlovni taklif qilmadi, bu esa saylovoldi kampaniyasida haqiqiy raqobatning yo‘qolishiga olib keldi.

Umuman olganda, saylov qonunchiligi xalqaro standartlarga va YXHTning demokratik saylovlarni o‘tkazish bo‘yicha majburiyatlariga to‘liq mos kelmaydi. 2023-yilda muhim tuzatishlar qayta ko‘rib

¹ Ushbu hisobotning faqat ingliz tilidagi nusxasi rasmiy hujjat hisoblanadi. Hujjatning norasmiy tarjimalari bilan o‘zbek va rus tillarida tanishish mumkin.

chiqilgan saylov tizimi, partiyalar ro'yxatini ro'yxatga olishning yangi qoidalari, saylov boshqaruv organlarini shakllantirish va ular tuzilmasining o'zgartirilgan qoidalari, shuningdek, gender kvotasiga qo'yiladigan talablarni kuchaytirdi. Biroq ushbu o'zgarishlarni amalga oshirishning nisbatan qisqa muddatlari xalqaro ilg'or tajribaga mos kelmadi. DIIHBning avvalgi ayrim tavsiyalari inobatga olingan bo'lsa-da, qonunchilik bazasida hamon deputatlikka nomzod bo'lish huquqini cheklash, siyosiy partiyalarni ro'yxatga olish bo'yicha og'ir talablar, fuqarolarning saylovni kuzatish bo'yicha tartib-qoidalarining yo'qligi kabi muhim kamchiliklar saqlanib qoldi. so'z erkinligi, uyushmalar va tinch yig'ilishlar erkinligi borasidagi asosiy huquqlarni himoya qilish bo'yicha DIIHBning uzoq yillik bir necha tavsiyalari e'tiborga olinmagan.

Barcha darajadagi saylovga tayyorgarlik samarali va o'z vaqtida amalga oshirildi. Markaziy saylov komissiyasi (MSK) o'z majlislarini muntazam ravishda jonli e'firda olib bordi va qarorlarini tezkorlik bilan e'lon qilish orqali shaffoflikka ko'maklashdi, ammo uning ommaviy majlislari asosan rasmiy bo'lib, mazmunli munozaralarni o'z ichiga olmadi. Quyi bo'g'in komissiyalari uchun umummilliy o'quv dasturi, garchi axborotga boy va interaktiv bo'lsa ham, turli joylarda turlicha sifatda taqdim etildi. Nogironligi bo'lgan saylovchilar uchun qulayliklarni oshirish maqsadida MSK maxsus chora-tadbirlar, jumladan, moslashtirilgan ovoz berish kabinalari, nogironlar aravachalari uchun panduslar, Brayl alifbosidagi tegishli yozuvlar va ko'rish qobiliyati cheklangan saylovchilar uchun qo'shimcha yordamchi vositalarni joriy qildi. DIIHBning avvalgi tavsiyalariga qaramay, saylov jarayonining turli jabhalarida davlat va mahalliy boshqaruv organlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi hisoblanuvchi mahallalarning muhim roli quyi bo'g'in saylov komissiyalarining mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Bu saylovda 20 millionga yaqin saylovchi ro'yxatga olingan. Xalqaro standartlarga muvofiq va DIIHBning uzoq yillik tavsiyasiga muvofiq, 2023-yilgi Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarning saylov huquqlariga qo'yiladigan umumiy cheklovni olib tashlandi. Saylovchilar ro'yxatlarini ommaviy ravishda, shu jumladan onlayn tarzda ko'rish imkoniyati yaratildi, bu esa saylov kunigacha shaffoflikni oshirdi. Xalqaro amaliyot va DIIHBning uzoq yillik tavsiyalariga qaramay, saylov qonunchiligida saylov kuni saylovchilarni qo'shimcha saylovchilar ro'yxatiga kiritishda tegishli ma'muriy kafolatlarsiz yoki tartibni suiiste'mol qilish holatlariga qarshi sud nazoratisiz qo'shish imkonini beradi.

Ro'yxatga olingan beshta siyosiy partiyaning barchasi o'z nomzodlarini ko'rsatdi. MSK jami 875 nafar nomzodni ro'yxatga oldi, ulardan 375 nafari 75 ta bir mandatli saylov okrugi bo'yicha, 500 nafari esa umummilliy saylov okrugi bo'yicha ishtirok etdi. Qonunchilikda partiyalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun ba'zi og'ir talablar yoki ro'yxatga olishni rad etish yoki faoliyatni to'xtatib turish uchun keng huquqiy asoslar saqlanib qolgan. Huquqiy baza mustaqil nomzodlarning saylovda qatnashishiga ruxsat bermaydi, bu xalqaro standartlar va DIIHBning avvalgi tavsiyalariga ziddir. Saylovda ishtirok etish huquqining cheklanishi, siyosiy partiyalarni ro'yxatga olishning cheklangan muhiti saylovlarning plyuralistik xususiyatini cheklab, siyosiy raqobatni cheklab qo'ydi.

Qonunchilikka o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng, nomzodlar ro'yxati uchun gender kvotasi 30 foizdan 40 foizga oshirildi. Qonunchilik palatasida vakolati tugayotgan deputatlarning 150 o'rinidan 48 tasini va yangi Qonunchilik palatasidagi 150 o'rindan 57 tasini xotin-qizlar egalladi. Nomzodlarning 45 foizini ayollar tashkil etdi. Ushbu saylovlar paytida Senat raisi, vakolati tugayotgan Qonunchilik palatasi spikerining yetti o'rinbosaridan biri va bosh vazirning to'rt o'rinbosaridan biri ayollar edi. Biroq, xotin-qizlarning jamoat va siyosiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga qaramay, rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlar yetarlicha vakillik qilayotganlari yo'q. Viloyat hokimlarining hammasi erkaklardir. Xotin-qizlar saylov boshqaruvida yaxshi vakillik qiladilar, lekin yuqori darajalarda, jumladan, MSKda va rahbarlik lavozimlarida ayollar soni maqtanarli emas.

Saylov kampaniyasi ancha vazmin ruhda o'tdi va nomzodlar hukmron partiya yoki bir-birlarining siyosatini ochiqchasiga tanqid qilmadi yoki unga e'tiroz bildirmadi. Nomzodlar mazmunli bahs-munozaralarga boy bo'lmagan saylovoldi kampaniyasini teng sharoitlarda olib borishda erkin bo'lsa-da, asosiy erkinliklarning tizimli ravishda cheklanishi jamoatchilikda saylov jarayoniga ishonchsizlik va tanlovning asl mohiyatiga nisbatan keng shubha uyg'otdi. Ijtimoiy tarmoqlardagi targ'ibot-tashviqot tadbirlari tartibga solinmagan va partiyalar ijtimoiy tarmoqlardan jamoatchilikka murojaat qilish uchun foydalangan bo'lsa-da, ularning tashviqot postlarida saylovchilarning onlayn ishtiroki cheklangan.

Saylov kampaniyalarini moliyalashtirishning me'yoriy bazasi mujmal bo'lib, ular samarali nazorat, shaffoflik yoki jamoatchilik nazoratini ta'minlamaydi. Saylovoldi kampaniyasini moliyalashtirish faqat davlat byudjeti hisobidan va faqat MSK tomonidan tasdiqlangan nomzodlar ro'yxati bilan ro'yxatga olingan siyosiy partiyalarga ajratiladi. Jismoniy shaxslardan xayriyalar kabi saylov kampaniyalarini moliyalashtirishning muqobil manbalari taqiqlanganligicha qolmoqda, bu esa xalqaro ilg'or tajriba va DIIHBning avvalgi tavsiyalariga ziddir. MSK ma'lumotlariga ko'ra, barcha siyosiy partiyalar o'zlarining oraliq hisobotlarini qonunda belgilangan muddatlarda taqdim etganlar va ularni partiyalarning veb-saytlarida e'lon qilganlar, ammo MSK hisobot shakliga rioya qilmaganlar va xarajatlar to'g'risida izchil hisobot bermaganlar, bu esa xarajatlarni tahlil qilishni qiyinlashtiradi. Puxta va o'z vaqtida nazorat qilinmaganligi hamda to'xtatuvchi jazo choralarning yo'qligi saylov kampaniyasini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligiga putur yetkazadi.

OAV uchun me'yoriy-huquqiy baza keng va yetarlicha aniq bo'lmagan qoidalarni o'z ichiga oladi, bu bilan fikr bildirish erkinligini asossiz ravishda cheklaydi. Xalqaro standartlar va DIIHBning avvalgi tavsiyalariga qaramay, tuhmat va haqorat qilish, jumladan, prezidentga nisbatan ommaviy tuhmat va haqorat qilish uchun belgilangan jinoyiy javobgarlik saqlanib qolmoqda. DIIHB SKM suhbatdoshlariga ko'ra, ommaviy axborotdan foydalanishdagi qiyinchiliklar, tahririyatning asossiz aralashuvi va cheklangan reklama bozori mustaqil jurnalistikani bo'g'ib qo'ydi va keng tarqalgan o'zini o'zi senzura qilishga olib keldi. Bir nechta telekanallar va yangiliklar sayti nomzodlar o'rtasida debatlar uyushtirdi, ammo umuman olganda, OAV fuqarolarga ongli ravishda tanlov qilishga yordam berish uchun partiya dasturlari tahlilini taqdim etmasdan, saylov bilan bog'liq yangiliklarni cheklangan tarzda yoritdi. Tegishli huquqiy talab yo'qligi sababli, xususiy telekanallar tomonidan efirga uzatiladigan va Internetda e'lon qilinadigan pullik siyosiy kontent shaffoflikka putur yetkazadi va ommaviy axborot vositalari etikasi zarariga ishladi.

Saylov ma'muriyati saylov bilan bog'liq har qanday shikoyatlar bo'yicha tegishli vakolatlarga ega, saylov komissiyalarining xatti-harakatlari va qarorlari ustidan faqat ma'muriy sudlarga berilishi kerak bo'lgan shikoyatlar bundan mustasno. Ijobiy jihati shundaki, DIIHBning avvalgi tavsiyalariga muvofiq, barcha shikoyatlar maxsus reyestrda e'lon qilinishi zarur, saylov komissiyalari esa shikoyatchilarni qaror haqida xabardor qilishi lozim bo'ladi. MSK vaqti-vaqti bilan shikoyatlarni e'lon qilgan bo'lsa-da, ro'yxatda bu shikoyatlar to'g'risida ma'lumotlar kam bo'lib, ularning to'liq matnlari bilan tanishish rad etilgan. MSK yig'ilishlarida shikoyatlar ochiq muhokama qilinmadi, bu esa umumiy shaffoflikka yanada zarar yetdi.

YXHT majburiyatlari va DIIHBning avvalgi tavsiyalaridan farqli o'laroq, saylov qonunchiligida saylovlarni fuqarolar tomonidan kuzatilishi (fuqarolik kuzatuvchi) to'g'risidagi qoidalar mavjud emas. Xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiyalar, mahalla qo'mitalari va akkredetatsiyadan o'tgan ommaviy axborot vositalari vakillari saylovlarda kuzatuvchi sifatida qatnashish huquqiga ega va MSK 851 nafar xalqaro kuzatuvchini ro'yxatga oldi. DIIHB SKMning ba'zi suhbatdoshlari chet eldan moliyalashtirishdagi cheklovlarni fuqarolik jamiyati, shu jumladan faoliyati saylovga yo'anltirilgan tashkilotlar rivojlanishi yo'lidagi eng asosiy to'siq sifatida e'tirof etdilar.

Saylov kuni tinch va tartibli o'tdi, biroq ko'plab qonunbuzarliklar, xizmat mavqeini suiiste'mol qilish holatlari, protsessual va texnik nosozliklar jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Kuzatilayotgan 1053 ta saylov uchastkasining 12 foizida ovoz berish jarayoni SKXM kuzatuvchilari tomonidan salbiy baholandi, bunga saylovchilarning ovoz berish huquqini tekshirish va bir necha marta ovoz berishning oldini olishga qaratilgan xavfsizlik choralarning yetarli darajada amalga oshirilmagani oqibatida tez-tez kuzatilgan jiddiy protsessual qoidabuzarliklar sabab bo'lgan. Ovoz berishda qatnashgan saylovchilar soni va rasman e'lon qilingan saylovchilarning dastlabki ma'lumotlari o'rtasidagi doimiy tafovutlar qayd etildi.

100 ta saylov uchastkasidan 43 tasida yopilish va ovozlarni sanash jarayonlari salbiy baholandi, bunga esa, asosan, muhim protsessual xatoliklar va kamchiliklar sabab bo'ldi. Kuzatilgan saylov uchastkalarining yarmidan ko'pida ovozlarni sanab chiqish tartib-qoidalariga rioya etilmagan, yarashuv bo'yicha muhim qadamlar o'tkazib yuborilgan va jarayonning yaxlitligi haqida xavotir bildirilgan. SKXM 14 ta HSKning barchasida ovoz berish natijalari jadvallarni kuzatdi va to'laqonli kuzatishga to'sqinlik qilish holatlari oqibatida shaffoflikka putur yetkazilgani tufayli, ularning yarmini salbiy baholadi. Umuman olganda, ovozlarni sanash va natijalarni jadvallarga kiritish jarayonlari 1990-yildagi YXHT Kopengagen hujjatining 7.4-bandiga muvofiq ovozlarni halollik bilan sanab chiqilishi va hisobot berishlarini ta'minlashi borasidagi talablarga zid bo'lganligi sababli, jiddiy tashvishga sabab bo'ldi. 28-oktabr kuni MSK saylovning yakuniy natijalarini e'lon qildi, ammo saylov uchastkalari bo'yicha natijalarni e'lon qilmadi, bu esa asosiy kafolatlarga zid ravishda, shaffoflikni yanada pasaytirdi.

Ushbu hisobotda O'zbekistondagi saylovlarni YXHT majburiyatlari hamda demokratik saylovlar bo'yicha boshqa xalqaro majburiyatlar va standartlarga to'liq muvofiqlashtirish bo'yicha sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar berilgan. Ustuvor tavsiyalar huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish, xususan, fuqarolarning asosiy siyosiy huquqlarini amalga oshirish imkoniyati, siyosiy partiyalar va nomzodlarni ro'yxatga olish qoidalarini YXHT majburiyatlariga ko'proq moslashtirish, saylov komissiyalarining mustaqilligini ta'minlash, saylov kampaniyalari paytida davlat va partiya o'rtasida aniq bo'linish tamoyiliga rioya qilish, saylov kuni saylovchilarni ro'yxatga olishning yaxlitligini ta'minlash, fuqarolarning saylovlarni kuzatish imkoniyatini ta'minlash va ajratilgan ovoz berish natijalarini e'lon qilishga qaratilgan. DIIHB O'zbekiston hukumatiga saylov jarayonini takomillashtirish va ushbu va avvalgi hisobotlarda keltirilgan tavsiyalarni ko'rib chiqishda yordam berishga tayyor.

II. KIRISH VA MINNATDORCHILIK SO'ZLARI

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining (MSK) taklifiga binoan, 2024-yil 27-oktabrdagi parlament saylovlari jarayonini kuzatish uchun YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (DIIHB) o'zining Saylovni kuzatish missiyasini (SKM) yubordi. Duglas Ueyk (Douglas Wake) rahbarligidagi DIIHB SKM Toshkent shahrida faoliyat yurituvchi 15 kishilik asosiy guruh va 1-oktabr kuni butun mamlakat bo'ylab joylashtirilgan 26 nafar uzoq muddatli kuzatuvchilardan iborat bo'ldi.

Saylov kuni DIIHB SKMga YXHT Parlament assambleyasi (YXHT PA) delegatsiyasi Saylovlarni kuzatish bo'yicha xalqaro missiyani (SKXM) tuzish uchun qo'shildi. Janob Azay Guliyev YXHTning amaldagi raisi tomonidan YXHTning maxsus koordinatori va qisqa muddatli kuzatuvchilar missiyasi rahbari etib tayinlandi. Sargis Xandanyan esa, YXHT PA delegatsiyasiga boshchilik qildi. Saylov kuni 33 mamlakatdan 318 nafar kuzatuvchi, shu jumladan DIIHB tomonidan 264 nafar kuzatuvchi, shuningdek, YXHT PAdan 54 kishidan iborat delegatsiya faoliyat ko'rsatdi. DIIHB SKM saylovdan keyingi voqealar rivojini kuzatish uchun 3-noyabrga qadar mamlakatda qoldi.

DIIHB SKM saylov jarayonining YXHT majburiyatlari, demokratik saylovlar bo‘yicha boshqa xalqaro majburiyatlar va standartlar, shuningdek, milliy qonunchilikka muvofiqligini aniqlash maqsadida o‘tkazildi. Ushbu yakuniy hisobot 2024-yil 28-oktabr kuni Dastlabki natijalar va xulosalar to‘g‘risidagi bayonotdan keyin e‘lon qilinayotgan hujjatdir².

DIIHB SKM O‘zbekiston MSKiga saylovni kuzatishga taklif qilgani uchun hamda Tashqi ishlar vazirligiga ko‘rsatgan yordami uchun minnatdorchilik bildiradi. Bu missiya boshqa davlat institutlari, siyosiy partiyalar hamda fuqarolik jamiyati tashkilotlari, OAV vakillari va xalqaro hamjamiyat vakillariga bu jarayondagi hamkorligi uchun o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

III. DASTLABKI SHART-SHAROITLAR VA SIYOSIY JIHLAR

Oliy Majlisning quyi (qonunchilik) palatasiga saylov 2024-yil 27-oktabr kuni mahalliy va hududiy kengashlarga saylovlar bilan bir vaqtda bo‘lib o‘tdi³. Ro‘yxatga olingan beshta siyosiy partiya bo‘lib, ularning barchasi parlamentda vakillik qiladi⁴. O‘zbekistonda kuchli prezidentlik boshqaruv tizimi mavjud bo‘lib, u ilgari o‘tkazilgan ba‘zi islohotlarga qaramay, markazlashgan holda qolmoqda⁵. Prezident qonun chiqaruvchi hokimiyatni parlament bilan birgalikda amalga oshirsa-da, eng muhim qarorlar prezident tomonidan qabul qilinadi, bu esa hokimiyatlarning samarali bo‘linishini shubha ostiga qo‘yadi⁶.

Yangi aralash saylov tizimida o‘tkaziladigan 2024-yilgi parlament saylovi 2023-yilda sezilarli darajada o‘zgartirilgan Konstitutsiyaning qabul qilinishi va saylov qonunchiligiga kiritilgan o‘zgarishlardan so‘ng saylov tizimini isloh qilish davri yakunlandi⁷. Yangi Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi ba‘zi qoidalarni kuchaytirdi, xususan, ziddiyatlar yuzaga kelgan taqdirda xalqaro shartnomalarning milliy qonunlardan ustunligini o‘rnatdi va Konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishini ta‘minladi⁸. Biroq fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlari qonunda va amalda, xususan, 1990-yildagi YXHT Kopengagen Hujjatining 3 va 7.6

² DIIHBning O‘zbekistondagi avvalgi saylovga aloqador [hisobotlariga](#) qarang.

³ DIIHB SKM mahalliy va hududiy saylovlarni ularning parlament saylovlariga ta‘siri darajasida kuzatdi.

⁴ 2019-yilgi Parlament saylovidan so‘ng Parlamentda O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (UzLiDeP) – 53 ta, Milliy tiklanish demokratik partiyasi (MTDP) – 36 ta, Sotsial-demokratik partiya (SDP) – 24 ta, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi (XDP) – 22 ta va O‘zbekiston Ekologik partiyasi (EP) – 15 ta deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritdi.

⁵ Bu islohotlar parlament nazoratining yangi mexanizmlari, jumladan, hukumat va davlat byudjeti faoliyatini yanada chuqurroq tekshirish, deputatlik so‘rovlaridan foydalanishni joriy etdi. Shuningdek, Senatning roli kengaytirilib, unga prezident takliflari asosida asosiy sud va hukumat amaldorlarini tayinlash imkonini berdi.

⁶ Prezident majburiy bo‘lgan farmon va qarorlar chiqaradi, asosiy mansabdor shaxslarni, jumladan, 65 nafar senatoridan 9 nafarini, barcha viloyatlar hokimlarini, Sudyalar oliy kengashi a‘zolarini, Bosh prokuror, Davlat xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi. Oliy Majlis referendum o‘tkazishi va byudjetni qabul qilishi mumkin, uning qonunchilik palatasi esa prezidentning taklifiga binoan Bosh vazirni saylaydi.

⁷ 2024-yil 19-yanvarda Senat parlament faoliyatini qayta ko‘rib chiqilgan Konstitutsiyaga muvofiqlashtiruvchi qonunchilikka o‘zgartirishlarni ma‘qulladi. O‘zgartirishlar har ikki palatani tarqatib yuborish qoidalarni joriy etdi, senatorlar soni 100 tadan 65 taga qisqartirildi, Bosh vazir va Vazirlar Mahkamasi a‘zolarini tayinlash jarayonini o‘zgartirdi, fuqarolarga, Senatga, Ombudsmanga va Markaziy saylov komissiyasiga qonunchilik tashabbusi huquqi berildi. 17-oktabr kuni hokimlar bir vaqtning o‘zida mahalliy kengashlar raisi bo‘lishi haqidagi tartib bekor qilindi.

⁸ Yangi Konstitutsiya ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar uchun qo‘shimcha kafolatlarni joriy etdi va o‘lim jazosini taqiqladi.

bandlariga zid ravishda, uyushmalar⁹ va tinch yig‘ilishlar¹⁰ erkinligi va so‘z erkinligi¹¹ borasidagi asosiy huquqlariga nisbatan nomutanosib ravishda cheklanganligicha qolmoqda¹².

Bir necha bor urinishlarga qaramay, 2003-yildan buyon yangi siyosiy partiya ro‘yxatga olinmagan, 2019-yilda hukumatni yoqlovchi O‘zbekiston Ekologik partiyasi bundan mustasno¹³. Siyosiy partiyalar to‘g‘risidagi qonunda ro‘yxatga olish tartibi ancha murakkab va Adliya vazirligiga arizalarni rasmiy sabablarga ko‘ra rad etish bo‘yicha keng ixtiyoriy vakolatlar beradi. Bir qator xalqaro tashkilotlar uyushmalar erkinligi huquqining bunday cheklanishidan o‘z xavotirini bildirishdi¹⁴. DIIHB SKMning ba‘zi suhbatdoshlari yangi siyosiy partiyalar yoki haqiqiy muxolifat yo‘qligidan afsusda ekanliklarini bildirdilar. Ko‘pchilik mohiyatan hukumatni qo‘llab-quvvatlovchi beshta partiya saylovchilarning katta qiziqishi yoki ishtirokini jalb qilmaganini va shu tariqa saylovchilarga haqiqiy tanlovni taklif qilmaganini tan oldi, bu esa YXHT majburiyatlariga ziddir¹⁵.

Hokimiyat alohida shaxslar va guruhlarining asossiz qonunchilik va amaliy cheklovlersiz siyosiy partiyalar tuzish huquqini kafolatlashi shart.

DIIHB SKM suhbatdoshlarining ko‘pchiligi davom etayotgan islohotlar fuqarolarning siyosiy yoki qaltis bo‘lmagan masalalar bo‘yicha harakat erkinligini ta‘minlagan bo‘lsa-da, fuqarolik va siyosiy

⁹ DIIHB va Venetsiya komissiyasining 2020-yilgi [Siyosiy partiyalarni tartibga solish bo‘yicha yo‘riqnomasi](#) 87-bandida “partiyani ro‘yxatga olishni rad etish asoslari qonunda aniq ko‘rsatilishi va u xolis mezonlar asosida belgilanishi” tavsiya etiladi. 1999-yilda qabul qilingan “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonun, unga oid qaror va hujjatlar fuqarolik jamiyati tashkilotlari (FJT) uchun Adliya vazirligi tomonidan xorijiy grantlarni tasdiqlash, davlat organlari bilan majburiy hamkorlik, Adliya vazirligining NNTlar barcha tadbirlariga rozilik berishi va ularga to‘siqsiz kira olishi, shuningdek, NNTlar xodimlarining xorijga xizmat safarlari haqida Adliya vazirligini xabardor qilish kabi qat‘iy talablarni o‘z ichiga oladi. [Vazirlar Mahkamasining 2023-yildagi 527-sonli qarori](#) bilan nodavlat notijorat tashkilotlari uchun xorijiy grantlarni ro‘yxatdan o‘tkazish soddalashtirildi va xorijiy grantlarning ruxsat etilgan miqdoriga oydinlik kiritildi.

¹⁰ Hech bir qonun mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlarni aniq tartibga solmaydi. Biroq ma‘muriy tartiblarni qonuniy talablarni buzgan holda tashkil etilgan yoki o‘tkazilgan tinch yig‘ilishlarni taqiqlaydi va ularga chora ko‘radi. Agar bunday harakatlar takroran sodir etiladigan bo‘lsa, jinoiy javobgarlikka tortiladi va uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Shuningdek, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda ruxsat etilmagan mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar o‘tkazishga ko‘maklashish uchun jazo choralari belgilangan. [DIIHB va Venetsiya komissiyasining 2020-yilgi Tinch yig‘ilishlar o‘tkazish erkinligi bo‘yicha yo‘riqnomasining](#) 36-bandida shunday tavsiya beriladi: “Yig‘ilish haqida oldindan ogohlantirmaslik yoki yig‘ilish uchun belgilangan yo‘nalish, vaqt va joy cheklovlariga rioya qilmaslik kabi jinoyatlar qamoq jazosi yoki katta jarimalar bilan jazolanmasligi zarur”.

¹¹ Jinoyat kodeksining terrorism, diniy ekstremizm, prezidentga nisbatan ommaviy haqorat yoki tuhmatga doir jinoyatlarga oid qoidalari mujmal va ular o‘zboshimchalik bilan qo‘llanilishi mumkin.

¹² [1990-yilgi YXHT Kopengagen hujjatining](#) 3-bandida ishtirokchi davlatlar “siyosiy tashkilotlarga nisbatan plyuralizm muhimligini tan oladilar”. Bu hujjatning 7.6-bandda “shaxslar va guruhlarining o‘z siyosiy partiyalarini yoki boshqa siyosiy tashkilotlarini to‘liq erkinlik bilan tuzish huquqi” kafolatlangan.

¹³ 2021-yilda Xidirnazar Allaqulov boshchiligidagi “Haqiqat va Taraqqiyot” sotsial-demokratik muxolifat partiyasi hamda “Xalq manfaatlari” demokratik partiyasi kerakli miqdordagi imzolarni to‘play olmagan uchun ro‘yxatdan o‘tkazilmadi. Janob Allaqulov DIIHB SKMga partiyani ro‘yxatdan o‘tkazishga urinishlari, jumladan, 2023-yilda o‘z partiyasini boshqa nom ostida ro‘yxatdan o‘tkazishga urinishi rad etilgani haqida xabar bergan, buning ortidan ichki ishlar xodimlari tomonidan unga, uning oila a‘zolari va tarafdorlariga nisbatan doimiy qo‘rqitish va hujumlar sodir bo‘lgan. 2021-yili “Ozod Vatan” va “Erk” demokratik partiyalari faollari qo‘rqitish va ta‘qiblarni bo‘lganini aytib, partiya tuzishga urinishlaridan voz kechishgan.

¹⁴ BMT Inson huquqlari qo‘mitasining (IHQ) o‘zining [2020-yilgi O‘zbekistonning beshinchi davriy hisobotiga oid yakuniy kuzatishlari](#)da davomli xavotirlarni ta‘kidlab: “Amaldagi qonunchilik uyushmalar erkinligi huquqiga (a) NNTlar va siyosiy partiyalarni ro‘yxatga olish uchun asossiz hamda og‘ir huquqiy va ma‘muriy talablar; (b) ro‘yxatga olishni rad etish sabablarining keng ro‘yxati kabi cheklovlar qo‘yishda davom etmoqda.

¹⁵ [1990-yildagi YXHT Kopengagen hujjatining](#) 6-bandida ishtirokchi davlatlar “davriy va haqiqiy saylovlar orqali erkin va adolatli ifodalangan xalq irodasi har qanday hukumat hokimiyati va qonuniyligining asosi hisoblanadi,” –deya ta‘kidlanadi.

huquqlar, shuningdek, ahamiyatli demokratik islohotlar bo‘yicha erishilgan yutuqlar COVID-19 pandemiyasi hamda 2022-yilda Qoraqalpog‘istonda sodir bo‘lgan voqealardan keyin susaygan yoki to‘xtab qolganini ta’kidladilar¹⁶. Ba’zilar buni islohotlarni ehtiyotkorlik bilan qayta izga solish bilan bog‘liq deb taxmin qildilar. DIIHB SKMning bir necha suhbatdoshi asosiy erkinliklar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha xalqaro hamkorlar bilan olib borilayotgan sa’y-harakatlar va maslahatlashuvlar, aksariyat hollarda oldinga muhim qadamlar uchun aniq muddatlar belgilanmaganligini eslatib o‘tdilar.

Xotin-qizlar Qonunchilik palatasida vakolati tugayotgan deputatlarning 150 o‘rinidan 48 tasini va Senatning 100 a’zosidan 21 tasini egallaydi. Bundan tashqari, Senat raisi saylangan paytda vakolati tugayotgan Qonunchilik palatasi spikerining yetti nafar o‘rinbosaridan biri va bosh vazirning to‘rt nafar o‘rinbosaridan biri ayollar edi. Qolaversa, rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlar vakilligi ham oz darajada qolmoqda. Sudyalar oliy kengashining 20 nafar a’zosidan 3 nafarigina ayollardir¹⁷. Viloyat hokimlarining hammasi erkaklardir.¹⁸ Yangi Qonunchilik palatasidagi 150 o‘rindan 57 tasiga ayollar saylandi.

IV. HUQUQIY MEXANIZMLAR VA SAYLOV TIZIMI

Parlament saylovlari 2023-yilgi Konstitutsiya va 2019-yilgi Saylov kodeksi bilan tartibga solinadi, unga oxirgi marta 2023-yilda o‘zgartirishlar kiritilgan Huquqiy baza 1996-yilda qabul qilingan “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonun (SPQ), 2004-yilda qabul qilingan “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi qonun (SPMQ), 1995-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksi va 1995-yilda qabul qilingan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun (Tenglik to‘g‘risidagi qonun) va 2021-yilda qabul qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun, shuningdek, Prezident va vazirliklarning bir nechta farmonlari, qarorlari va MSKning majburiy qarorlari bilan to‘ldirildi. O‘zbekiston demokratik saylovlar o‘tkazish bilan bog‘liq asosiy xalqaro hujjatlarning ishtirokchisi hisoblanadi¹⁹. Konstitutsiyaga ko‘ra, ushbu shartnomalar va xalqaro huquq normalari mamlakat huquqiy tizimining ajralmas qismi hisoblanadi²⁰.

Saylov qonunchiligi avvalgi parlament saylovlaridan so‘ng sezilarli darajada o‘zgartirildi. Mazkur o‘zgartirishlar saylov tizimini qayta ko‘rib chiqish, partiyalar ro‘yxatini ro‘yxatga olish qoidalari, Markaziy saylov komissiyasini shakllantirish qoidalari, hududiy saylov komissiyalari (HSK) faoliyatini yangi bosqichga o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Ushbu tuzatishlar qabul qilinishidan keyingi parlament saylovlari o‘tkazilishigacha bo‘lgan vaqt nisbatan qisqa bo‘lib, bu ilg‘or xalqaro tajribaga

¹⁶ Dastlab 2022-yilda Konstitutsiyaga kiritilgan ko‘plab o‘zgartirishlar orasida Qoraqalpog‘iston Respublikasining suveren maqomini va uning ajralib chiqish huquqini bekor qilishga qaratilgan qoidalar ham bor edi. Ushbu qoidalarga qarshilik 2022-yil iyul oyida ichki ishlar xodimlari namoyishni tarqatib yuborganida avtonom respublikada keng ko‘lamli norozilik namoyishlari va qurbonlarga olib keldi. Taklif etilgan qoidalar prezident Mirziyoyevning viloyatga tashrifidan so‘ng bekor qilindi.

¹⁷ Batafsil ma’lumot uchun Sudyalar oliy kengashining [vebsahifasiga](#) o‘tishingiz mumkin.

¹⁸ BMT Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish bo‘yicha qo‘mitasi (CEDAW) O‘zbekistonning [Oltinchi davriy hisoboti bo‘yicha o‘zining yakuniy xulosalarida](#) “maqsadli chora-tadbirlarni, jumladan, kvotalar va saylov kampaniyasini boshqaruvning barcha darajalarida, Oliy Majlisda va [...], xususan, qarorlar qabul qilish darajasida maqsadli moliyalashtirish kabi maxsus choralarni ko‘rishni tavsiya qildi”. Shuningdek, [Xotin-qizlarning siyosiy va jamoat hayotidagi ishtiroki to‘g‘risidagi YXHT vazirlarining 07/02-sonli Afina qarorining](#) 2, 3 va 5-bandlariga qarang.

¹⁹ Bu ushbu hujjatlarni o‘z ichiga oladi: [1966-yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt \(FSHXP\)](#), [1966-yildagi Irg bo‘yicha kamsitishga barham berish to‘g‘risidagi xalqaro pakt \(IKBXP\)](#), the [1979-yilgi Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida Konventsiya \(XKBBK\)](#), [2003-yilgi Korruptsiyaga qarshi konventsiya](#), [2006-yilgi Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya \(NHTK\)](#).

²⁰ Konstitutsiyaning 15-moddasida ushbu shartnomalarning milliy qonunchilikdan ustunligi alohida e’tirof etilgan.

mos kelmaydi²¹. Ijobiy jihati shundaki, nomzodlarning gender kvotasi 30 foizdan 40 foizga oshirilib, partiya ro‘yxatiga har besh nomzoddan kamida ikki nafar ayol kiritilishi shart. Qonunchilik jarayoni rasmiy ravishda jamoatchilik ishtiroki va maslahatlarini o‘z ichiga olgan, biroq mazmunli jamoatchilik fikri uchun juda qisqa muddatlarni taqdim etgan²².

Markaziy saylov komissiyasi 2023-yil dekabr oyida qabul qilingan Saylov kodeksiga o‘zgartirishlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etdi²³. Afsuski, DIIHB doimiy ravishda yordam berishga tayyor bo‘lishiga qaramay, o‘tmishdagidan farqli o‘laroq, ushbu tuzatishlar bo‘yicha DIIHBning fikri so‘ralmagan. Saylovdan oldin, MSK DIIHB tavsiyalarini bajarish bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqdi va DIIHB SKMni saylov islohotlarini yanada ilgari surish bo‘yicha uzoq muddatli rejalari haqida xabardor qildi.

O‘zgartirishlar DIIHBning avvalgi bir qancha tavsiyalarini, jumladan, saylov qonunchiligini qayta ko‘rib chiqish, og‘ir jinoyatlarda aybdor deb topilgan shaxslarning ovoz berishiga qo‘yilgan umumiy cheklolarni olib tashlash, bir necha marta ovoz berish va saylovoldi kampaniyasini moliyalashtirish bo‘yicha hisobot berish qoidalarini buzganlik uchun ma‘muriy jazolarni joriy etish, shuningdek, xotin-qizlarning jamiyat hamda siyosiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan qonunchilik doirasidagi chora-tadbirlarni hisobga oldi. Oxirgi islohotlarga qaramay, qonunchilik bazasida bir qator muhim kamchiliklar, jumladan, saylovda qatnashish huquqini cheklash va siyosiy partiyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha og‘ir talablar, shuningdek, fuqarolarning saylovni kuzatish va saylov natijalarini e‘lon qilish bo‘yicha shartlarning yo‘qligi kabilar saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, qonunchilikdagi ayrim mujmalliklar va kamchiliklarga hamon aniqlik kiritish zarurligicha qolmoqda²⁴. DIIHBning bir qancha uzoq yillik tavsiyalari, jumladan, so‘z erkinligi, uyushmalar va tinch yig‘ilishlar erkinligi borasidagi asosiy huquqlar amalga oshirilmagan²⁵. Huquqiy baza hali ham YXHT majburiyatlari va demokratik saylovlar bo‘yicha boshqa xalqaro majburiyatlar va standartlarga to‘liq rioya qilish uchun jiddiy o‘zgarishlarni talab qiladi.

Qonunchilikni YXHT majburiyatlari, xalqaro standartlar va ilg‘or tajribalarga yanada muvofiqlashtirish maqsadida qayta ko‘rib chiqish kerak. Navbatdagi huquqiy sharh inklyuziv va shaffof maslahatlashuv jarayoni orqali oldinda turgan saylovdan ancha oldin o‘tkazilishi kerak.

²¹ Bu muhim o‘zgartirishlar parlament sayloviga atigi o‘n oy qolganida qabul qilingan. [Venetsiya Komissiyasining 2002-yildagi “Saylov masalalarida adolatli amaliyot kodeksi”ning II.2.b bo‘limida](#) “saylov qonunchiligining asosiy elementlari, xususan, saylov tizimining o‘zi, saylov komissiyalarining tarkibi va saylov okruglarining chegaralanishi saylovlarga bir yildan kamroq vaqt qolganda o‘zgartirilishi belgilanmasligi kerak”.

²² Jamoatchilik maslahatlari belgilangan 15 kunlik minimumni inobatga olgan holda 2023-yilning 10-oktyabridan 24-oktyabriga qadar onlayn tarzda faoliyat ko‘rsatdi. Shunga qaramay, ko‘plab suhbatdoshlar DIIHB SKMga bu muhokamalardan bexabar ekanliklarini yoki ularda ishtirok etmaganliklarini aytishdi. Ba‘zi suhbatdoshlarning ta‘kidlashicha, avvalgi konstitutsiyaviy islohotlar bo‘yicha maslahatlashuvlar va referendumoldi maslahatlashuvlarida saylov tizimidagi o‘zgarishlar keng muhokama qilingan bo‘lsa-da, bu jarayonlar 2023-yil dekabr oyida Saylov kodeksiga o‘zgartirishlar ishlab chiqish va qabul qilishdan oldin sodir bo‘lgan. [1991-yildagi Moskva hujjatining](#) 18.1-bandida keltirilishicha, “Qonunchilik to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ularning saylangan vakillari orqali xalqning xohish-irodasini aks ettiruvchi ochiq jarayon orqali ishlab chiqiladi va qabul qilinadi”.

²³ MSK ushbu jarayonning barcha bosqichlarida ishtirok etgani haqida xabar berib, DIIHB SKMga jarayon ommaviy bo‘lgani, jamoatchilikdan 400 ta taklif va fikr-mulohazalar onlayn tarzda olinganini ma‘lum qildi.

²⁴ Qonunda bir qancha muhim yo‘nalishlar, jumladan, saylovda mahallalarning o‘rni, davlat resurslaridan foydalanish, yuqori mansabdor shaxslarning saylovoldi kampaniyasida ishtirok etishi, saylov okruglari chegaralarini belgilashda aniqlik yo‘q.

²⁵ BMT Inson huquqlari qo‘mitasi (HRC) FSHXPga berilgan [25-umumiy izohi](#) 12-bandida “so‘z erkinligi, uyushmalar va tinch yig‘ilishlar erkinligi saylov huquqini samarali amalga oshirishning muhim shartlari bo‘lib, bu huquqlar to‘liq himoya qilinishi kerak,” deb ta‘kidlangan. Shuningdek qarang: BMT Inson huquqlari qo‘mitasining [2020-yilgi O‘zbekistonning beshinchi davriy hisobotiga oid yakuniy kuzatishlari](#), [O‘zbekiston bo‘yicha tavsiyalar](#) hamda HRC’ning [2023-yilgi universal davriy sharhi](#).

Konstitutsiyada xalqaro shartnomalarning milliy qonunchilikdan ustunligi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq me'yorlarining bevosita qo'llanilishi ko'zda tutilgan. Biroq asosiy erkinliklarni amalga oshirishni tartibga soluvchi qonunosti hujjatlar qayta ko'rib chiqilmagan. Bu jarayonning bir qancha jihatlari Prezident farmonlari va boshqa qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinishda davom etmoqda. Amalda qonunosti hujjatlari ustuvorligining saqlanib qolishi qonun hujjatlarining huquqiy aniqligi ta'minlamaydi.

Asosiy huquq va erkinliklarni tartibga soluvchi qonunchilik har qanday cheklovlar YXHT majburiyatlari, xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarga muvofiq qonuniylik, vakolatlilik, zarurat va mutanosiblik tamoyillariga muvofiqligini ta'minlash uchun atroflicha qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Parlament ikki palatadan, Senat va quyi qonunchilik palatasidan iborat bo'lib, ikkalasi ham besh yillik vakolat muddatiga ega²⁶. 2023-yilgi tuzatishlardan so'ng, Senat bilvosita saylangan 65 nafar a'zoga ega bo'ldi, 150 nafar quyi palata esa avvalgi majoritar tizim o'rniga yangi aralash saylov tizimi asosida saylandi. Bu saylovlarda yetmish besh deputat bir mandatli saylov okruglari bo'yicha nisbiy ko'pchilik ovoz berish, ya'ni majoritar tizimga ko'ra, qolgan 75 nafari esa butun mamlakat bo'ylab yopiq ro'yxat bo'yicha mutansoib tizimda yetti foizlik chegara asosida saylanadi. Saylov haqiqiy bo'lishi uchun mamlakat bo'ylab jami saylovchilarning kamida 33 foizi ishtirok etishi lozim.

2024-yil avgust oyida MSK 75 ta yangi bir mandatli saylov okruglari uchun chegaralarni belgiladi. Qonunga ko'ra, barcha saylov okruglarida saylov huquqiga ega bo'lganlar soni taxminan teng bo'lishi kerak, bunda har bir saylov okrugi bo'yicha saylovchilarning o'rtacha respublika sonidan 10 foizgacha ko'p yoki kam bo'lishiga ruxsat etiladi. Markaziy saylov komissiyasining DIIHB SKMga ma'lum qilishicha, beshta okrugdagi saylovchilar soni geografik joylashuvi va aholi ko'p bo'lgan hududlardagi ovozlarni tufayli o'rtacha respublika ko'rsatkichidan 15 foizdan ko'proq chetlashgan²⁷. Xorijdan faqat umummilliy saylov okrugiga taalluqli bo'lgan barcha ovozlarni Toshkent HSK tomonidan sanab chiqiladi.

V. SAYLOVNI BOSHQARISH

Parlament saylovlari Markaziy saylov komissiyasi (MSK), 14 ta hududiy saylov komissiyasi (HSK) va 11 028 ta uchastka saylov komissiyasi (USK), shu jumladan, xorijda tashkil etilgan 57 ta uchastka saylov komissiyasi tomonidan o'tkazildi²⁸. Keng mas'uliyatli doimiy organ bo'lgan MSK saylov jarayonining barcha bosqichlarini nazorat qiladi²⁹. 2023-yilda qonunchilikka kiritilgan

²⁶ Senat 12 ta viloyat va Toshkent shahrining har biri bo'yicha mahalliy kengashlar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputatlari tomonidan saylanadigan to'rt nafar senatordan iborat. Prezident 9 nafar senatorni tayinlaydi.

²⁷ Tumanlar bo'yicha farqlar quyidagicha bo'ldi: Navoiy viloyati, 19-sonli (23 foiz), 20-sonli (22 foiz), 21-sonli (25 foiz) bir mandatli saylov okruglari hamda 71 (18 foiz) va 72-sonli (25 foiz) Toshkent shahar saylov okruglari. [Venetsiya Komissiyasining 2002-yildagi "Saylov masalalarida adolatli amaliyot kodeksi"ning 2.2.iv bo'limi tavsiyasiga muvofiq: "Me'yordan ruxsat etilgan og'ish 10% dan oshmasligi, 15% dan aniq oshmasligi kerak, alohida holatlar bundan mustasno \(aholi kam yashaydigan ma'muriy birliklardagi ozchilik guruhlarini himoya qilish maqsadida\)".](#)

²⁸ Jazoni ijro etish muassasalari, harbiy qismlar, kasalxonalar va boshqa sog'liqni saqlash muassasalarida maxsus saylov uchastkalari tashkil etilgan.

²⁹ Bundan tashqari, Markaziy saylov komissiyasi deputatlikka nomzodlarni ro'yxatga olish, saylovoldi kampaniyasini o'tkazishda, jumladan, OAVda, saylov byulletenlarini tarqatishda teng imkoniyatlarni ta'minlash, saylov natijalarini tasdiqlash va bekor qilish bilan shug'ullanadi. Davlat va mahalliy hokimiyat organlari saylov komissiyalarini moddiy-texnik jihatdan hamda kundalik ehtiyojlarini ta'minlaydi.

o'zgartishlarga ko'ra, uning a'zolari soni 21 dan 9 taga qisqartirildi³⁰. MSK raisi o'z a'zolari orasidan besh yil muddatga saylanadi va bu lavozimni ketma-ket ikki muddatdan ko'p bo'lmagan muddatga egallashi mumkin. MSKning hozirgi tarkibiga faqat ikkita ayol kiritilgan. Umuman olganda, xotin-qizlar saylov boshqaruvida yaxshi vakillik qiladilar, lekin yuqori darajalarda va rahbarlik lavozimlarida ayollar soni maqtanarli emas. MSK ma'lumotlariga ko'ra, USK a'zolarining 54 foizi, USK raislarining 44 foizi, HSK a'zolarining 43 foizi va 14 ta hududiy saylov komissiyasi raislaridan 1 nafari ayollar bo'lgan. Xotin-qizlar uchastka saylov komissiyasi a'zolarining qariyb 58 foizini tashkil etdi, kuzatilgan saylov uchastkalarining uchdan bir qismidan ko'prog'ida xotin-qizlar raislik qilishdi.

2023-yilgi tuzatishlar saylov boshqaruvini qayta tuzib, o'z hududlaridagi saylovlarni nazorat qilish uchun 14 ta yangi HSK joriy etildi³¹. MSK hududiy vakillik organlarining tavsiyalari asosida 2024-yil 29-may kuni HSK a'zolarini tayinladi³². HSK 12-16-sentabr kunlari tegishli mahalliy Kengashlar tomonidan tavsiya etilgan a'zolar orasidan mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organi hisoblanuvchi mahallalar, shuningdek, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar vakillaridan uchastka saylov komissiyalarini tayinladi³³. USKlar ovoz berish va ovozlarni sanab chiqish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul bo'lib, ular 5-19 a'zodan iborat bo'ldi. HSKlar DIIHB SKMning uzoq muddatli kuzatuvchilariga USKlarga tayinlash to'g'risidagi umumlashtirilgan ma'lumotlarni taqdim etmadi, bu esa shaffoflikni pasaytirdi. DIIHB SKM hududiy saylov komissiyalari darajasida mahallalar va Mahallalar milliy uyushmasining muhim ta'sirini qayd etdi³⁴. DIIHB SKMning ayrim suhbatdoshlari saylovni boshqarishda bunday ishtirok etishning betarafligiga shubha qilishdi.

Hududiy saylov komissiyalari va uchastka saylov komissiyalari a'zolarini ko'rsatish va tayinlash markaziy va mahalliy hokimiyat organlaridan, mahallalardan mustaqil bo'lgan holda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

MSK texnik muddatlarni bajarishda umuman samarali bo'lgan bo'lsa-da, uning siyosiy partiyalar, OAV va xalqaro kuzatuvchilar ishtirokidagi yig'ilishlari asosan rasmiy bo'lgan. Qarorlar ommaviy yig'ilishlarda muhokama qilinmasdan bir ovozdan qabul qilindi va natijalar rasmiy yig'ilishlardan oldin ishchi uchrashuvlarda kelishib olindi. HSKlar professional tarzda ishladi, biroq ularning yangi saylov okruglari chegaralari va saylov ma'lumotlari, xususan, raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatini tushunishlarida ba'zi kamchiliklar borligi qayd etildi.

MSK barcha quyi bo'g'in saylov komissiyalari uchun umummilliy kaskad o'quv-treninglarini o'tkazdi. DIIHB SKM kuzatuvchilari quyi bo'g'indagi komissiyalarning individual roli va tartiblariga qaratilgan treningni amaliy va interaktiv, lekin sifat jihatidan turlicha bo'lgan deb baholadilar. MSK ko'rsatmalari e'lon qilinishidan oldin bir nechta o'quv treninglari o'tkazildi va MSKning foydalanish imkoniyati bo'yicha ko'rsatmalari HSK va USKlarga yetkazildi.

MSK va USKlar saylovchilar uchun targ'ibot va tashviqot ishlarini olib bordilar. Ularning ma'lumotlari sifat jihatidan turlicha bo'lgan, ammo nomzodlar haqidagi ma'lumot plakatlari

³⁰ MSK a'zolarini parlament hududiy vakillik organlarining takliflari asosida noma'lum muddatga tayinlaydi. MSKning bir a'zosi Qoraqalpog'iston Respublikasi vakili bo'lishi shart.

³¹ Bu holat respublikaning 12 viloyatining har birida bittadan va Toshkent shahrida bitta vaziyatda kuzatilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi umumxalq saylovini o'tkazishda HSK vakolatlarini amalga oshiradi.

³² HSKlar rais, rais o'rinbosari, kotib va 12 dan 18 tagacha boshqa a'zoldan iborat bo'ladi. MSKning qarori asosida HSKning uch nafargacha a'zosi doimiy asosda, qolganlari esa ixtiyoriy asosda besh yil muddat faoliyat ko'rsatadi.

³³ Siyosiy partiyalar komissiya a'zolarini ko'rsatishga haqli bo'lmaydi. Har bir USK muayyan USK a'zolarining yarmigacha nomzodini ko'rsatishi mumkin.

³⁴ Saylov kodeksida mahallalar uyushmasi yoki mahalla a'zolarining HSK/USKlardagi roli belgilanmagan.

aksariyat hududlardagi saylov uchastkalariga osib qo‘yilgan. Davlat telekanallari va “UzReport TV” xususiy telekanali MSK tomonidan tayyorlangan saylovchilarga oid ma’lumot beruvchi videoroliklarni namoyish etdi. Asosiy davlat telekanali hisoblangan “O‘zbekiston24” MSK vakillari va boshqa mehmonlar ishtirokida fuqarolarni saylov jarayoni haqida xabardor qilish maqsadida haftalik teleko‘rsatuv tashkil qildi. Biroq DIIHB SKM uzoq muddatli kuzatuvchilari hududlardagi saylovchilarga o‘zgargan saylov tizimi haqida ma’lumotlar yetarli darajada berilmaganligini ma’lum qilishdi. MSK va HSK ma’lumotlarni o‘z veb-saytida va ma’lum darajada ijtimoiy tarmoqlarda taqdim etdi³⁵.

Bu galgi saylovda MSK Toshkent shahridagi 10 ta saylov uchastkasida ovoz berish va ovozlarni sanashning yangi texnologiyasini sinovdan o‘tkazdi, bu esa saylovchilarga maxsus uskuna yordamida ovoz berish yoki qo‘lda qog‘ozli byulletenlarni tanlash imkonini berdi.

MSK tomonidan nogironligi bo‘lgan shaxslar ishtirokini kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilgan sa’y-harakatlar tegishli tomonlar bilan batafsil maslahatlashuvlar va alohida shartlarni tavsiflovchi maxsus yo‘riqnoma qabul qilish kabi harakatlarni o‘z ichiga oldi³⁶. Ushbu chora-tadbirlar saylov uchastkalarida Brayl shablonlari va boshqa yordamchi vositalar, masalan, ko‘rish qobiliyati cheklangan saylovchilar uchun kattalashtiruvchi oynalar va qo‘shimcha yorug‘lik bilan ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Biroq saylov kuni kuzatilgan saylov uchastkalarining 13 foizida Brayl alifbosidagi byulleten namunalari yo‘q edi va boshqa bir qancha holatlarda ulardan foydalanish, yordam ko‘rsatish orqali, ovoz berishning yashirinligini buzdi va shuning uchun ko‘rish qobiliyati cheklangan shaxslarning mustaqil ovoz berishiga yordam bermadi.

MSK yo‘riqnomasida, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlariga nogironlar aravachalari uchun panduslar yordamida harakatlanishdagi qulayliklarni ta’minlash yoki panduslar mavjud bo‘lmagan taqdirda, kirish joylarini yordam chaqirish tugmalari bilan jihozlash topshirildi. Shuningdek, mahalliy hokimiyat organlariga nogironlar aravachasidan foydalanuvchilar uchun moslashtirilgan kabinallarni o‘rnatish va nogironligi bo‘lgan saylovchilarni zarur hollarda tashishni osonlashtirish topshirildi³⁷. Saylovchilar uchun qulaylik yaratish bo‘yicha ijobiy chora-tadbirlar ko‘rilganiga qaramay, DIIHB SKM tomonidan kuzatilgan saylov uchastkalarining 14 foizi bunday saylovchilarning mustaqil kirishlariga yo‘l bermaydi, 6 foiz kuzatuvlarda esa saylov uchastkasi buning uchun mos emasligi aniqlandi.

Saylov byulletenlari HSK qarori bilan o‘zbek va mahalliy tillarda chop etildi³⁸. Boshqa saylov materiallari, jumladan MSK nizomlari yoki saylovchilar haqidagi ma’lumotlar o‘zbek tilida, ba’zan esa rus va qoraqalpoq tillarida chop etildi.

³⁵ MSK yig‘ilishlari Telegram, Facebook, Instagram, X, Ok.ru va YouTube’da e’lon qilib borildi. Ruscha va qoraqalpoqcha resurslar o‘zbekcha resurslarga qo‘shib yuborildi.

³⁶ Nogironlar vakili bo‘lgan tashkilotlar bilan maslahatlashuvlar o‘tkazildi va Ijtimoiy himoya agentligi saylovchilarning foydalanish imkoniyatiga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash bo‘yicha viloyat va tuman darajasida ish olib bordi. Mintaqaviy nogironlar tashkilotlari odatda qoniqish hosil qilgan bo‘lsa-da, ularning ayrimlari maslahat to‘liq qamrab olinmagan yoki o‘z vaqtida o‘tilmagan deb hisobladilar.

³⁷ MSK 698 954 nafar nogironligi bo‘lgan va 16 012 nafar o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslar ovoz berganini ma’lum qildi.

³⁸ 14 ta HSKning hammasi saylov byulletenlari rus tilida, shuningdek, bitta HSKda qoraqalpoq tilida bo‘lgan (Qoraqalpog‘iston). MSK byulletenlarning 94,8 foizi o‘zbek tilida, 2,9 foizi qoraqalpoq tilida va 2,3 foizi rus tilida chop etilganini ma’lum qildi.

VI. SAYLOVCHILARNI RO‘YXATGA OLISH

18 va undan katta yoshdagi fuqarolar ovoz berish huquqiga ega. 2023-yilgi Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar xalqaro standartlarga muvofiq va DIIHBning uzoq yillik tavsiyasiga javoban, muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarning ovoz berish huquqidagi umumiy cheklovni olib tashladi. Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shu jumladan, aqliy yoki ruhiy-ijtimoiy nogironligi bo‘lgan, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan shaxslarning ovoz berish huquqi sudning yakka tartibdagi qaroriga ko‘ra bekor qilinishi mumkin³⁹. Nogironligi sababli ovoz berish huquqidan mahrum qilish xalqaro standartlarga ziddir⁴⁰.

O‘zbekistonda doimiy yoki vaqtincha yashash uchun saylovchilar yoki ovoz beruvchilarni ro‘yxatga olishning passiv tizimi qo‘llaniladi⁴¹. Saylovchilarning yagona elektron ro‘yxati (SYER) bir nechta davlat idoralari va vazirliklarning ma‘lumotlar bazalaridan foydalangan holda avtomatik tarzda tashkil qilingan va u MSK tomonidan yuritiladi⁴². USKlar saylovchilarning vaqtinchalik ro‘yxatlarini ochiq e‘lon qilish va tasdiqlash uchun mas‘ul bo‘lishdi. Ular mahalla vakillari bilan birgalikda uyma-uy yurib, saylovchilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni hamda mahalliy hokimiyat organlari va mahallalarning haqiqiy manzillarini tekshirishdi. Quvonarlisi, fuqarolar saylov uchastkalarida shaxsan ro‘yxatdan o‘tishdan tashqari, o‘z ma‘lumotlarini onlayn tekshirishlari mumkin bo‘ldi. DIIHB SKM kuzatuvchilari tashrif buyurgan aksariyat USK saylov kunidan 15 kun oldin saylovchilar ro‘yxatini qonun talabiga ko‘ra, jamoatchilik tanishishi uchun joylashtirgan. Fuqarolar ro‘yxatlardagi xatolar yuzasidan uchastka saylov komissiyasiga shikoyat qilishlari mumkin bo‘ldi va bu masala bo‘yicha qarorlar 24 soat ichida qabul qilinadi. Saylovchilar ro‘yxatlari saylov kuniga besh kun qolganida yakuniga yetkazildi.

Ro‘yxatga olingan saylovchilarning yakuniy soni esa 20 110 490 nafar deb e‘lon qilindi⁴³. DIIHBning uzoq yillik tavsiyalariga qaramay, saylov qonunchiligida saylov kuni saylovchilarni qo‘shimcha saylovchilar ro‘yxatiga kiritishda tegishli ma‘muriy kafolatsiz yoki tartibni suiiste‘mol qilish holatlariga qarshi sud nazoratisiz qo‘shish imkonini beradi⁴⁴. Ba‘zi DIIHB SKM suhbatdoshlari, jumladan, HSK a‘zolari saylovchilar ro‘yxatlarining to‘liq va aniq emasligidan

³⁹ Konstitutsiyaning 128-moddasi muomalaga layoqatsizligi va ozodlikdan mahrum qilinganligi sababli saylov huquqidan mutlaq sud tomonidan mahrum qilishni nazarda tutadi. DIIHB SKMga MSK barcha mahbuslar ovoz berishi mumkinligini ma‘lum qildi.

⁴⁰ MSK ma‘lumotlariga ko‘ra, shu paytgacha nogironlik tufayli ovoz berish huquqidan mahrum bo‘lish holatlari kuzatilmagan. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasining 12- va 29-moddalari mamlakatlarga “jismaniy imkoniyati cheklangan shaxslar hayotning barcha sohalarida boshqalar bilan bir xil huquqqa egaligi” va “ularni ovoz berish va saylanish huquqlari bilan ta‘minlash” majburiyatini yuklaydi. [Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya 12-moddasi bo‘yicha BMT maxsus qo‘mitasining 2014-yildagi 1-umumiy izohida](#), shunday deyiladi “Shaxsning qaror qabul qilish qobiliyati nogironlarning o‘z siyosiy huquqlari, shu jumladan saylash, saylanish huquqini amalga oshirishdan har qanday darajada istisno qilish uchun asos bo‘la olmaydi”. Qo‘mita 2013-yildagi [4/2011-sonli xabarnomasining](#) 9.4-bandida ta‘kidlashicha, “Psixoiijtimoiy yoki aqliy nogironlik, shu jumladan individual baholash asosidagi cheklovlar asosida ovoz berish huquqini istisno qilish nogironlarni kamsitish deb baholanadi”.

⁴¹ MSKning DIIHB SKMga ma‘lum qilishicha, O‘zbekiston tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan diplomatik vakolatxonalarida boshqa maqsadlarda ro‘yxatdan o‘tgan chet el fuqarolari uchun saylovchilarni ro‘yxatga olish passiv hisoblanadi; elchixonalar va konsulliklarda boshqa tarzda ro‘yxatdan o‘tmagan chet el fuqarolari ushbu saylovda ovoz berish uchun faol ro‘yxatdan o‘tishlari mumkin.

⁴² Ular qatoriga Adliya vazirligining Personlaizatsiya agentligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, shuningdek, Ichki ishlar, Sog‘liqni saqlash, Mudofaa va Tashqi ishlar vazirliklari kiradi.

⁴³ Bu galgi saylovlarda xorijda 165 631 nafar saylovchi ro‘yxatga olingan, ularning 132 667 nafari esa, muddatidan oldin ovoz berish uchun ro‘yxatdan o‘tgan.

⁴⁴ [Venetsiya komissiyasining Saylov masalalarida adolatli amaliyot kodeksining](#) I.1.2- bo‘limida “qo‘shimcha ro‘yxat o‘sha ro‘yxat yakuniy e‘lon qilingan kundan boshlab yashash joyini o‘zgartirgan yoki qonunda belgilangan saylov yoshiga yetgan shaxslarga ovoz berish vositasi bo‘lishi mumkin” va “ro‘yxatga olinmagan saylovchini ro‘yxatga olish harakati uchun sud nazorati yoki sud tartibida amalga oshiriladigan ma‘muriy chora ko‘rish joriy qilinishi zarur; ro‘yxatga olish saylov kuni saylov uchastkasida o‘tkazilmasligi kerak”, deya belgilangan.

xavotir bildirdilar. Xususan, USK bayonnomalarida qo'shimcha saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan saylovchilar alohida hisobga olinmaydi va MSK qo'shimcha saylovchilar ro'yxati bo'yicha mamlakat bo'yicha ma'lumotlarni e'lon qilmaydi.

Takroriy ovoz berishning oldini olish va xalqaro ilg'or tajribaga muvofiq saylovchilar ro'yxatlarining yaxlitligini ta'minlash uchun qo'shimcha saylovchilar ro'yxatlaridan noto'g'ri foydalanishga qarshi ishonchli kafolatlarni belgilash va ta'minlash, shuningdek, ushbu ro'yxatlarga kiritilgan saylovchilar sonini e'lon qilish lozim.

VII. NOMZODLARNI RO'YXATGA OLIISH

Saylov kuni 25 yoshga to'lgan va mamlakatda kamida besh yil doimiy yashayotgan fuqarolar deputatlikka nomzod bo'lishlari mumkin⁴⁵. Saylovda qatnashish huquqi, shuningdek, og'ir jinoyatlar uchun sudlanganligi o'talmagan fuqarolarni ovoz berish huquqidan mahrum qilishni ham istisno qiladi. DIIHBning avvalgi tavsiyalariga qaramay, YXHTning xalqaro standartlari va majburiyatlariga zid ravishda, mustaqil nomzodlar o'z nomzodligini qo'yishlariga ruxsat etilmaydi⁴⁶. DIIHB SKMning bir nechta suhbatdoshi ushbu cheklov va siyosiy partiyalarni ro'yxatdan o'tkazishdagi qiyinchiliklarni ushbu saylovlarning demokratik yoki raqobatbardosh bo'lmaganligining sababi sifatida ko'rsatdilar.

Faqat ro'yxatga olingan beshta siyosiy partiya nomzodlar ko'rsatish huquqiga bo'ldi. Nomzodini ko'rsatish uchun, siyosiy partiya O'zbekistonning 14 ta ma'muriy-hududiy birligida saylov huquqiga ega kamida 40 ming nafar fuqaroni qo'llab-quvvatlash uchun imzo to'plashlari kerak edi, bunda bir birlikda 8 foizdan ko'p bo'lmagan imzo to'planishi kerak bo'ladi. Siyosiy partiyalar 75 ta bir mandatli saylov okrugining har biridan bittadan, partiya ro'yxati bo'yicha kamida 75 ta, lekin 100 tadan ko'p bo'lmagan nomzod ko'rsatishi mumkin bo'ldi⁴⁷.

Huquqiy baza mustaqil nomzodlar, shu jumladan, jamoat birlashmalari va fuqarolar guruhlariga nomzodlar ko'rsatish huquqini kengaytirish orqali ovozga qo'yish imkoniyatini ta'minlashi zarur.

21-sentabrga belgilangan muddatga qadar MSK jami 875 nafar nomzodni ro'yxatga oldi, ulardan 375 nafari bir mandatli saylov okruglari bo'yicha, 500 nafari esa partiya ro'yxati bo'yicha ishtirok etdi⁴⁸. Barcha siyosiy partiyalar mumkin bo'lgan maksimal miqdordagi nomzodlarni ko'rsatdilar. Quvonarlisi, nomzodlarning 45 foizi ayollar bo'lib, bu gender bo'yicha ko'zda tutilgan 40 foizlik kvotadan oshib ketgan.

⁴⁵ [FSHXPga berilgan 25-umumiy izohning](#) 15-bandida "saylovda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ta'lim, yashash joyi yoki kelib chiqishi yoki siyosiy mansubligi kabi asossiz yoki kamsituvchi talablar bilan chetlashtirilmasligi kerak"ligini tasdiqlaydi. Jismoniy shaxslar jazoni o'tayotgan bo'lsa yoki og'ir jinoyat sodir etganligi uchun sudlanganligi oqlanmagan bo'lsa, shuningdek, harbiy xizmatchilar, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi xodimlari yoki diniy tashkilotlarning ulamolari sifatida ishlagan bo'lsalar, ular saylanish huquqiga ega emaslar. Qolaversa, sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilgan yoki sud qarori bilan qamoqqa olingan shaxslar ham saylanish huquqidan mahrum qilinadilar.

⁴⁶ [1990-yilgi YXHT Kopengagen hujjatining](#) 7.5-bandi fuqarolarga "yakka tartibda yoki siyosiy partiyalar yoki tashkilotlarning vakillari sifatida, hech qanday kamsitishlarsiz siyosiy yoki davlat lavozimlariga tayinlanish" huquqini hurmat qilish talab qilinadi.

⁴⁷ Partiya ro'yxatiga kiritilgan nomzodlar uning nomzodini ko'rsatgan siyosiy partiya a'zosi yoki a'zo bo'lmagan shaxslar bo'lib, boshqa siyosiy partiyalar a'zolarining ro'yxatga kiritilishiga yo'l qo'yilmadi.

⁴⁸ Saylov kodeksining 42-moddasiga ko'ra, nomzodlar saylovga qadar istalgan vaqtda MSKni bu haqda rasman xabardor qilgan holda o'z nomzodini qaytarib olish huquqiga ega.

VIII. SAYLOVOLDI KAMPANIYASI

Saylovoldi kampaniyasi 22-sentabrda boshlanib, 25-oktabrgacha davom etgan⁴⁹. Qonunchilikka ko‘ra, saylovoldi kampaniyasi yig‘inlari tegishli mahalliy hokimiyat organiga kamida uch kun oldin yozma ravishda xabar qilinganidan keyin o‘tkazilishi kerak, buning uchun ruxsat talab qilinmaydi⁵⁰. Nomzodlarning hech biri DIIHB SKMga saylovoldi tashviqoti qoidalari yuzasidan hech qanday tashvishlarini bildirmadi. 21-sentabr kuni barcha siyosiy partiyalar MSK bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan saylovoldi odob-axloq qoidalariga rioya qilishga kelishib oldilar⁵¹.

Umuman olganda, saylov kampaniyasi ancha vazmin ruhda o‘tdi, nomzodlar hukmron partiya yoki bir-birlarining siyosatini ochiqchasiga tanqid qilmadi yoki e‘tiroz bildirmadi⁵². Nomzodlar saylovoldi kampaniyasini teng sharoitlarda olib borishda erkin bo‘lsa-da, va qonun teng sharoitlarni kafolatlasada, asosiy erkinliklarning tizimli ravishda cheklanishi siyosiy faoliyatdan qo‘rquvni, jamoatchilikda saylov jarayoniga ishonchsizlik va tanlovning asl mohiyatiga nisbatan keng shubha uyg‘otdi. DIIHB SKMning bir necha suhbatdoshlari partiyalarning murojaatlari deklarativ xarakterga ega ekanligi, siyosiy partiyalar va elektorat o‘rtasida bog‘liqlik yo‘qligini, natijada saylovoldi tadbirlari “sahnalashtirilgan” bo‘lib ko‘ringanligini ta’kidladiladi. Saylovoldi kampaniyasi davomida saylovchilar faolligining pastligi va SKXM kuzatuvlari MSK tomonidan e‘lon qilingan rasmiy ishtirokning ishonchliligiga jiddiy shubha uyg‘otdi.

Barcha nashr etilgan partiya platformalari o‘xshash mavzularga qaratilgan bo‘lib, ularning ba’zilari o‘ziga xos jihatlarni ta’kidladi: iqtisodiy rivojlanish (UzLiDeP), ijtimoiy rivojlanish (XDP), qonun ustuvorligi (SDP), atrof-muhitni muhofaza qilish (EP), milliy meros va qadriyatlar (MTDP), shuningdek, boshqaruv va davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy, suv va barqaror iqtisodiyot kabi mavzular ilgari surildi. Saylovoldi kampaniyasi chog‘ida nomzodlar milliy dasturlarni umumiy ma’noda tilga olishdi, ba’zan esa muayyan mahalliy muammolarni hal qilishdi. Xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik masalalari saylovoldi munozaralarida muhim o‘rin tutmadi, ammo ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy ishtiroki vaqti-vaqti bilan tilga olindi va muhokama qilindi⁵³.

Saylovoldi kampaniyasi asosan kichik va o‘rta hajmdagi yopiq yig‘ilishlar, bilbordlar, plakatlari, televideniye (TV), internet va ijtimoiy tarmoqlardagi reklama, shuningdek, ochiq havoda ba’zi

⁴⁹ MSKning 1345-sonli qarorida siyosiy partiyalar saylovoldi kampaniyasi boshlangunga qadar o‘z dasturi va (yoki) saylovoldi platformasi to‘g‘risida tushuntirish va reklama ishlarini o‘z mablag‘lari hisobidan, shu jumladan homiylik mablag‘lari hisobidan siyosiy partiya yoki uning nomzodlariga ovoz berishga taklifnomsiz (chaqiriqsiz) o‘tkazishi mumkinligi belgilangan.

⁵⁰ 2021-yilda DIIHBning avvalgi tavsiyasiga muvofiq, ommaviy targ‘ibot tadbirlariga ruxsat berishning avvalgi tizimi xabardor qilish tizimiga o‘zgartirildi. Qonunda kichikroq tashviqot tadbirlari (saylovchilar bilan uchrashuvlar) va kattaroq (ommaviy) tadbirlar bir-biridan farq qiladi. Kichikroq tadbirlar saylov komissiyasini xabardor qilish orqali o‘tkazilishi mumkin, ommaviy tadbirlar esa mahalliy hokimiyat organlarini kamida uch kun oldin yozma ravishda xabardor qilishni talab qiladi.

⁵¹ Partiyalar o‘zlarini qonuniy yo‘l tutishga, shaxsiy daxlsizlik, qadr-qimmat va obro‘-e‘tiborni hurmat qilishga, jamoat axloqiga rioya qilishga, tovlamachilik, qo‘rqitish yoki majburlash hamda boshqa noqonuniy ta’sir va ovozlarni sotib olishdan qochishga va’da berdilar. Shuningdek, ular sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan har qanday targ‘ibot materiallarini alohida belgilashga rozi bo‘lishdi.

⁵² Saylovoldi kampaniyasida haqiqiy raqobat yo‘qligining ko‘rsatkichlaridan biri DIIHB missiyasi kuzatgan tadbirlarda, shuningdek, nomzodlar o‘rtasidagi teledebatlarda ishtirokchilar o‘rtasida tanqidiy munosabatning yo‘qligi bo‘ldi.

⁵³ Ba’zi bayonotlarda onalikni qo‘llab-quvvatlash (ijtimoiy to‘lovlar), bolalarni parvarish qilish, ta’lim va ayollar uchun bandlik masalalari ilgari surilgan. DIIHB SKMning uzoq muddatli kuzatuvchilari kuzatgan saylov tadbirlarida tinglovchilarning qariyb 52 foizini ayollar tashkil qildi.

tadbirlar, jumladan, konsertlar ko'rinishida olib borildi⁵⁴. Amaldagi tartib-qoidalar ma'muriy resurslarni suiiste'mol qilishni taqiqlaydi, Saylov kodeksi esa yuqori martabali davlat amaldorlari (hukumat va ma'muriy organlar rahbarlari), shuningdek, sudyalarning saylovoldi kampaniyasida ishtirok etishini taqiqlaydi. Biroq nomzodlar uchun saylovoldi kampaniyasi davrida rasmiy majburiyatlardan ozod bo'lish bo'yicha hech qanday qonuniy majburiyatlar mavjud emas⁵⁵. Beshta vazir va yana bir qancha yuqori martabali rahbarlar nomzod sifatida ishtirok etdilar⁵⁶.

Davlat va partiya o'rtasidagi bo'linishni ta'minlash uchun ma'muriy resurslarni suiiste'mol qilish va davlat mansabdor shaxslarining saylovoldi kampaniyasida, shu jumladan nomzod sifatida ishtirok etishiga oid qoidalarga aniqlik kiritilishi lozim.

HSKlar ba'zan partiyalarning saylovoldi kampaniya tadbirlarini tashkil qilib, ularga moderatorlik qildi, mahalliy hokimiyat organlari esa saylovoldi kampaniyasini o'tkazish uchun bepul joy ajratdilar. Mahalla qo'mitalari saylovchilarni ayrim saylov tadbirlarida ishtirok etishga safarbar qildi. DIIHB SKMning uzoq muddatli kuzatuvchilari ish vaqtida davlat idoralari binolari va ish joylarida uchrashuvlar o'tkazilganini qayd etdilar. Ba'zi hollarda DIIHB SKM kuzatuvchilari ishtirokchilarda qiziqish va ishtiyoqning yo'qligi, oldindan tayyorlangan savol-javoblar, shuningdek, tinglovchilar o'z ixtiyori bilan kelmagani haqida xabar berishdi, bu esa xodimlar va talabalarni majburlash maqsadida ularga bosim o'tkazilishi mumkinligi haqidagi xavotirlarni keltirib chiqardi⁵⁷.

Hukumat organlari huquqiy va ma'muriy choralar orqali saylovoldi kampaniyasining o'quvchilar va davlat tomonidan moliyalashtiriladigan muassasalar xodimlariga kampaniya tadbirlarida qatnashish uchun bosim o'tkazmasdan o'tkazilishini ta'minlashi kerak.

DIIHB SKM kuzatgan saylovoldi kampaniyasi uchastkalarining qariyb yarmi nogironlar uchun mustaqil kirish imkoniyatini ta'minlagan. Teledebatlarda imo-ishora tilidan foydalanishga imkoniyat yaratildi. Nogironlar uyushmasining DIIHB SKMga ma'lum qilishicha, kampaniya tadbirlari ba'zan maktablarning ikkinchi qavatlarida o'tkazilishi, bu esa nogironlarning kirish imkoniyatini ta'minlamaganini ta'kidladi.

Milliy ozchiliklar huquqlari bilan bog'liq masalalar hech bir nomzodning platformalarida ko'rsatilmagan. Kampaniya davomida DIIHB SKM tomonidan milliy ozchiliklarga nisbatan hech qanday kamsituvchi holatlar qayd etilmagan yoki kuzatilmagan. DIIHB SKM kuzatgan saylov kampaniyasi tadbirlarining deyarli barchasi o'zbek tilida bo'ldi⁵⁸. Siyosiy partiyalar DIIHB SKMga

⁵⁴ DIIHB SKM kuzatishlarida bino ichidagi 38 ta va tashqaridagi 8 ta saylovoldi kampaniyasi tadbirlari qayd etildi. 70 ga yaqin asosiy ma'ruzachilardan 24 nafari xotin-qizlar bo'lishdi. DIIHB missiyasi tomonidan kuzatilgan 46 ta saylovoldi kampaniyasi tadbiridan 11 tasi O'zLiDeP, 10 tasi SDP, 7 tasi XDP, 6 tasi MTDP, 6 tasi EP, 4 tasi esa, HSK tomonidan o'tkazilgan qo'shma tadbirlar va 2 ta debatni tashkil etdi. DIIHB SKM Buxoro, Farg'ona, Jizzax, Namangan, Samarqand, Toshkent va Zarafshon shaharlarida saylovga oid tadbirlar, jumladan konsertlar o'tkazilganini ham qayd etishdi.

⁵⁵ Nomzodlar orasida bosh vazirning ikki o'rinbosari, Xotin-qizlar davlat qo'mitasi rahbari va ikki davlat idorasi rahbari bor edi.

⁵⁶ "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 62-moddasida sudyalarning siyosiy partiyaga a'zo bo'lishi, uni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashi, siyosiy partiyalarning tadbirlarida ishtirok etishi va boshqa siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishi taqiqlangan. Nomzod bo'lgan Adliya vaziri DIIHB SKMga ko'p hollarda vazirlik vazifalarini bajarmaganligini, balki uni ko'rsatgan partiyani ilgari surganini tasdiqladi. [EXHT Kopengagen hujjatining](#) 5.4-bandida "davlat va siyosiy partiyalar o'rtasida aniq chegara; xususan, siyosiy partiyalar davlat bilan aralashtirilmaydi", deb aytilgan.

⁵⁷ DIIHB SKM Andijon, Buxoro, Farg'ona, Navoiy, Samarqand va Toshkentda bir nechta shunday holatlarni kuzatdi. BMT Inson huquqlari qo'mitasi (HRC) FSHXPga berilgan [25-umumiy izohining](#) 19-bandida aytilishicha, "saylovchilar zo'ravonlik yoki zo'ravonlik bilan tahdid qilish, majburlash, undash yoki har qanday turdagi manipulyativ aralashsuz o'z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak".

⁵⁸ Uchta holatda ham o'zbek, ham rus tilida o'tkazilgan.

rus va qoraqalpoq tillarida ham saylov kampaniyasi materiallarini chop etib, tarqatilgani haqida ma’lumot berdilar.

Ijtimoiy tarmoq platformalarida saylovoldi kampaniyasi tartibga solinmaydi, biroq Saylov kodeksida tashviqot usuli sifatida ijtimoiy tarmoqlar va internet ham kiritilgan. Partiyalar jamoatchilikka murojaat qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan, asosan Telegram tarmog‘idan foydalangan bo‘lsa-da, saylovoldi kampaniyasining vazmin ruhdaligi internetda ham o‘z aksini topdi va nomzodlar postlariga nisbatan kam ishtirok etdi. Aksincha, mashhur blogerlarning turli ijtimoiy tarmoqlardagi profillari va kanallari prezidentning hududlarga tashrifi, mayda korrupsiya, ijtimoiy muammolar, havo ifloslanishi, energiya ta’minoti va Rossiya Federatsiyasi bilan munosabatlar kabi boshqa mavzularni yoritishda sezilarli darajada ko‘proq e’tiborni tortdi.

IX. SAYLOV KAMPANIYALARINI MOLIYALASHTIRISH

Saylov kodeksi, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi qonun va MSK to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlar saylov kampaniyalarini moliyalashtirishni tartibga soladi, bu faqat davlat tomonidan moliyalashtiriladi va faqat ro‘yxatga olingan siyosiy partiyalar tomonidan MSK tomonidan tasdiqlangan nomzodlar ro‘yxati asosida amalga oshiriladi⁵⁹. Jismoniy shaxslarning xayriya mablag‘lari taqiqlanganligicha qolmoqda, bu xalqaro ilg‘or tajribaga va DIIHBning avvalgi tavsiyalariga ziddir⁶⁰. Xorijiy davlatlar, fuqarolar yoki yuridik shaxslar tomonidan nomzodlar yoki partiyalarni moliyalashtirishi, moddiy yordam ko‘rsatishi noqonuniy hisoblanadi.

Siyosiy ishtirok va plyuralizmni rag‘batlantirish uchun saylovoldi kampaniyalarini moliyalashtirishning me’yoriy-huquqiy asoslari xalqaro ilg‘or tajribaga mos kelishi zarur. Bu jismoniy shaxslarga ham siyosiy partiyalarga, ham nomzodlarga ma’lumotlarni oshkor qilish bo‘yicha yagona limitlar va talablar doirasida xayriya qilishga ruxsat berishni o‘z ichiga oladi.

Saylovoldi kampaniyasini moliyalashtirish ro‘yxatga olingan nomzodlar sonidan kelib chiqib belgilanadi va ushbu saylovda ro‘yxatga olingan partiyalar tomonidan har bir nomzod uchun 15 million so‘m (taxminan 1083 yevro) ajratildi.⁶¹ Saylovoldi kampaniyasi tadbirlari vaqtida saylovchilarga to‘lovlar va sovg‘alar berish taqiqlanadi. Agar nomzod o‘z nomzodini qaytarib olsa, foydalanilmagan mablag‘lar saylov natijalari e’lon qilinganidan keyin besh kun ichida MSKga qaytarilishi shart.

DIIHBning avvalgi tavsiyasiga muvofiq 2021-yilda qonunchilik bazasiga o‘zgartirishlar kiritilganidan so‘ng, ushbu saylovlarda ilk bor siyosiy partiyalar saylov kunidan besh kun oldin MSKga oraliq moliyaviy hisobotlarni va saylov natijalari e’lon qilinganidan keyin 20 kun ichida

⁵⁹ 2024-yil 19-iyuldagi 1351-sonli Farmon “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi qonunda aks ettirilgan talablarni butkul takrorlab, unda hisobot berish muddatlari va shakllari ham keltiriladi, saylovoldi kampaniyasiga har qanday shaxsiy mablag‘larni taqiqlaydi va ularni qaytarishni talab qiladi, partiyalarga saylovoldi kampaniyasi davlat jamg‘armalaridan kompensatsiya to‘lanadigan partiya mablag‘lari hisobidan saylov bilan bog‘liq xarajatlarni oldindan to‘lash imkonini beradi.

⁶⁰ [Siyosiy partiyalarni tartibga solish bo‘yicha yo‘riqnomaning](#) 204 va 209-bandlariga qarang: “Siyosiy partiyalarni tashkil etish siyosiy ishtirok etishning bir shakli hisoblanadi va partiyalar uchun xususiy moliyaviy badallar so‘rashi maqsadga muvofiqdir” va “barcha shaxslar o‘zi tanlagan siyosiy partiyani qo‘llab-quvvatlashini moliyaviy va natura shaklida erkin ifoda etish huquqiga ega”. Shu hujjatning 233-bandda aytilishicha, “subsidiyalar [...] yagona daromad manbai bo‘lmasligi yoki davlat qo‘llab-quvvatlashiga haddan tashqari qaramlik uchun sharoit yaratmasligi zarur”.

⁶¹ MSK bu miqdorni bitta nomzod uchun eng kam oylik ish haqining 14,3 baravari miqdorida belgiladi. 1 yevro taxminan 13 700 so‘mbu tashkil qiladi. Har bir siyosiy partiyadan 175 nafar nomzod ro‘yxatga olingan. Mos ravishda, MSK har bir partiya 2,6 milliard so‘mdan o‘tkazib berdi.

yakuniy hisobotlarni taqdim etishlari shart bo‘ldi⁶². Hisobot shaklida onlayn va ijtimoiy tarmoqlardagi kompaniya xarajatlari haqida hisobot berish ham ko‘zda tutilgan. MSK ma‘lumotlariga ko‘ra, beshala siyosiy partiya ham qonunda belgilangan muddatlarda oraliq hisobotlarni taqdim etgan. Siyosiy partiyalar saylovoldi kampaniyasi to‘g‘risidagi hisobotlarni saylov natijalari e‘lon qilingan kundan boshlab bir oy muddatda o‘z internet sahifalarida va bosma ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilishi shart⁶³. Hisob palatasi navbatdagi kalendar yilining boshiga to‘g‘ri kelishi lozim bo‘lgan, shu jumladan, saylov kampaniyasini moliyalashtirish bo‘yicha oldingi moliyaviy auditni o‘tkazadi⁶⁴. DIIHB SKM kuzatuvchilari siyosiy partiyalar hisobot berish talablaridan umuman bexabar ekanliklarini bildirishdi; shunga qaramay, DIIHB SKMga saylov kampaniyasini moliyalashtirish qoidalari bo‘yicha xavotirlar kelib tushmadi⁶⁵.

Saylov kampaniyalarini moliyalashtirishning me‘yoriy bazasi aniq emas va shaffoflik yoki samarali nazoratni ta‘minlamaydi. Deklaratsiya qilingan xarajatlarning haqiqiy olingan summalarga mos kelishini tekshirish mexanizmlari mavjud emas va shartnomalar, shu jumladan ishchi kuchi qiymati va narxlar to‘g‘risidagi hisobotlar taqdim etilmasligi lozim. Qonunda siyosiy partiyalar o‘z hisobotlarida qanday ma‘lumotlarni oshkor qilishlari kerakligi ko‘rsatilmagan. MSK hisobotiga qo‘yiladigan talablar faqat ma‘lum toifadagi xarajatlar va daromadlar haqidagi umumiy ma‘lumotlarni qamrab oladi. Saylovoldi kampaniyasini moliyalashtirish hisobotiga rioya qilmaslik uchun yaqinda qo‘shilgan ma‘muriy choralar avtomatik tarzda emas va ma‘muriy sudga yuborilishi kerak bo‘ladi⁶⁶. Umuman olganda, DIIHBning oldingi tavsiyalariga qaramay, normativ-huquqiy baza saylov kampaniyalarini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligiga putur yetkazadigan puxta va o‘z vaqtida nazoratni hamda tiyib turuvchi sanksiyalarni ta‘minlamaydi⁶⁷.

Saylov kampaniyalarini moliyalashtirishning shaffofligi va samarali nazoratini amalga oshirish uchun qonunchilikka hisobot berish, ma‘lumotlarni oshkor qilish va tekshirish bo‘yicha keng qamrovli talablarni belgilash, shuningdek, ularga rioya qilmaganlik uchun o‘z vaqtida, samarali, mutanosib va tiyib turuvchi jazo choralari nazarda tutuvchi tuzatishlar kiritish zarur.

⁶² Oraliq hisobotlar siyosiy partiyalarning veb-saytlarida e‘lon qilindi. Ushbu hisobotlar MSK hisobotlari formatiga mos kelmadi va xarajatlar izchil taqdim etilmadi, bu esa xarajatlarni tahlil qilishni qiyinlashtirdi.

⁶³ Partiyalar, shuningdek, Oliy Majlisga, Adliya vazirligi, Moliya vazirligi va Soliq qo‘mitasiga yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etishlari shart. Ushbu partiyalarning hech biri natijalarni e‘lon qilishi shart emas.

⁶⁴ Shunisi e‘tiborga loyiqki, 2024-yil aprel oyida Hisob palatasi [o‘z veb-saytida](#) audit natijalarini jamlagan va tomonlar olgan va sarflagan mablag‘lar ko‘rsatilgan maqolani e‘lon qildi. Bu ijobiy holat, biroq “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi qonunning “Siyosiy partiyalarning yillik moliyaviy hisobotlarini e‘lon qilishni talab qiladigan” 18-moddasiga mos kelmaydi.

⁶⁵ Siyosiy partiyalarning saylovoldi kampaniyalarini moliyalashtirish bo‘yicha hisobotlarga qo‘yiladigan talablar va tegishli muddatlar to‘g‘risidagi bilimlari turlicha bo‘lib, ularning ba‘zilari eski ma‘lumotlar va muddatlardan foydalangan yoki ushbu hisobotlar ijtimoiy tarmoq platformalariga joylashtirilishi kerakligini ma‘lum qilgan.

⁶⁶ Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 51-8 va 51-11-moddalarida saylov yoki referendumni moliyalashtirish tartib-taomillarini buzganlik hamda saylovda ishtirok etish uchun ajratilgan davlat mablag‘lari bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni lozim darajada taqdim etmaganlik uchun ma‘muriy jazo choralari belgilangan. Shuningdek, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 245-moddasiga qarang.

⁶⁷ Saylov kampaniyasini moliyalashtirish va hisobot berish qoidalarga rioya qilmaslik uchun ma‘muriy javobgarlikning yangi kiritilishi potentsial ijobiy holatdir. Siyosiy partiyalar uchun belgilangan sanksiyalar miqdori 112 yevro, mansabdor shaxslar uchun esa taxminan 225 yevro; Har bir partiya har bir nomzod uchun saylovoldi kampaniyasini moliyalashtirish uchun taxminan 1083 yevro olishini hisobga olsak, bu mablag‘lar tiyib turuvchi hisoblanmaydi. [Siyosiy partiyalarni tartibga solish bo‘yicha yo‘riqnomaning](#) 272-bandida shunday deyiladi: “Jazo choralari tegishli qonunlar va me‘yoriy hujjatlarni buzganlikda aybdor deb topilgan siyosiy partiyalarga nisbatan qo‘llanilishi va tiyib turuvchi xususiyatga ega bo‘lishi zarur. Bundan tashqari, jazo choralari ijro etilishi lozimligidan tashqari, har doim xolis, samarali va muayyan huquqbuzarlikka mutanosib bo‘lishi kerak”.

X. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

A. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MUHITI

OAV muhiti ko‘p sonli davlat ommaviy axborot vositalari bilan tavsiflanadi, ular muhim ma’lumot manbai bo‘lib, ko‘p tomonlama fikrlar maydonini ehtimoliy kamaytiradi. Televideniye asosiy axborot manbai bo‘lib qolmoqda, undan keyin esa onlayn OAVni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bloglar va Telegram kanallari qo‘shimcha va ba’zan muqobil ma’lumot manbalarini taklif qiladi. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, ommaviy axborot vositalari ustav fondidagi xorijiy hamkorlar ulushi 30 foizdan yuqori bo‘lishi taqiqlanadi va mahalliy ommaviy axborot vositalariga xorijdan mablag‘ olish taqiqlanadi.

Ommaviy axborot vositalarining, birinchi navbatda, Internetdagi erkinligiga huquqiy cheklovlardan tashqari bir qancha omillar to‘sqinlik qilmoqda. Jumladan, tahririyat erkinligiga tashqaridan asossiz aralashuvlar, ommaviy axborot vositalarining moliyaviy imkoniyatlariga ta’sir etuvchi cheklangan reklama bozori hamda tanqidiy xabarlarga javoban o‘z reklamalarini qaytarib olishga yoki tuhmat va yolg‘on ma’lumotlar uchun sudga da’vo qo‘zg‘atishga tayyor kompaniyalar shular jumlasidandir. Bu omillar o‘zini o‘zi senzura qilishning ommalashuviga olib keladi va jamoatchilikni qiziqtirgan masalalarni tahliliy yoritishga to‘sqinlik qiladi. Tajribali jurnalistlar sonining cheklanganligi va OAV axloqini buzish holatlari axborot ekotizimini yanada buzadi. DIIHB SKM suhbatdoshlari OAV mutaxassisleri o‘rtasida hamjihatlik yo‘qligini, bu esa ularning o‘z huquqlarini himoya qilish, umumiy xulq-atvor kodeksini ishlab chiqish va o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini cheklayotganini ta’kidladilar.

B. HUQUQIY BAZA

Konstitutsiya OAV erkinligini kafolatlaydi va senzurani taqiqlaydi, biroq qonunchilik bazasi xalqaro standartlarga javob bermaydi⁶⁸. Unda diniy ekstremizm, separatizm, jamoat tartibini buzish, “oilaviy qadriyatlar” va yolg‘on ma’lumotlarga oid keng va yetarlicha oydinlik kiritilmagan qoidalar mavjud. Ushbu hujjatda huquqiy aniqlik yo‘q va ular so‘z erkinligi huquqini asossiz ravishda cheklaydi⁶⁹. Veb-saytlar yoki boshqa ommaviy “axborot resurslari” egalari, shu jumladan blogerlar uchinchi tomon kontentining qonunga muvofiqligi va o‘z platformalarida joylashtirilgan ma’lumotlarning haqqoniyligini nazorat qilishlari shart⁷⁰.

So‘z erkinligini samarali himoya qilish uchun OAV faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik har tomonlama o‘rganilishi va maslahatlashuv jarayonida va DIIHB tavsiyalariga muvofiq qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Har qanday cheklovlar, shu jumladan, internet-resurslardagi cheklovlar qonuniylik, legitimlik, zaruriyat va mutanosiblik tamoyillariga qat’iy muvofiq bo‘lishi va sud nazorati ostida bo‘lishi kerak.

⁶⁸ So‘z erkinligi va ommaviy axborot vositalari erkinligiga daxldor huquqiy normalar Jinoyat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarda keltirib o‘tilgan.

⁶⁹ [FSHXPga berilgan 34-umumiy izohning](#) 22-bandida qayd etilishicha, “cheklovlar qo‘llanilishi mumkin: cheklovlar “qonun bilan belgilangan” bo‘lishi kerak... va ular zaruriyat va mutanosiblikning qat’iy sinovlariga javob berishi kerak... Cheklovlar faqat ular mo‘ljallangan maqsadlar uchun va ular asoslangan maxsus ehtiyoj bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi zarur”.

⁷⁰ Shuningdek, DIIHB va YXHTning OAV erkinligi masalalari bo‘yicha vakilining 2024-yildagi [Axborot kodeksi loyihasi bo‘yicha qo‘shma fikrida keltirilgan tavsiyalarga](#) qarang.

DIIHBning avvalgi tavsiyalari va xalqaro standartlarga qaramay, tuhmat va haqorat uchun jinoiy javobgarlik saqlanib qolmoqda⁷¹. Jinoyat kodeksiga 2020-yilda kiritilgan o‘zgartirishlar asosida jazo sifatida qamoq jazosi olib tashlangan bo‘lsa-da, ular baribir jarima, axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikni cheklash bilan jazolanuvchi huquqbuzarlik bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, Jinoyat kodeksida ommaviy tuhmat va prezidentni haqorat qilganlik uchun besh yilgacha qamoq jazosi ko‘zda tutilgan⁷². 2021-yilgi Kodeksga kiritilgan tuzatish bu qoidani internet asosidagi har qanday aloqaga tatbiq etdi, bu esa media muhitiga cheklovchi ta’sir ko‘rsatdi, fuqarolarni onlayn kontent uchun javobgar qilib qo‘yishi barobarida ularni ehtimoliy sudlanish va qamoq jazosiga tortilish ehtimolini keltirib chiqardi.

Tuhmat va haqorat jinoiy javobgarlikdan chiqarilishi, prezidentni omma oldida haqoratlash va unga tuhmat qilish to‘g‘risidagi qoidalar bekor qilinishi kerak.

2021-yilda qabul qilingan “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon ijobiy qadam bo‘ldi, biroq, DIIHB SKM suhbatdoshlari fikricha, uning ijrosi izchil ravishda bo‘lmayapti⁷³. DIIHBning tavsiyalariga qaramay, so‘z erkinligi va OAV erkinligini himoya qiluvchi huquqiy baza haligacha xalqaro standartlarga mos ravishda isloh qilinmagan⁷⁴.

Prezident ma’muriyati huzurida OAV faoliyatini tartibga soluvchi organ bo‘lgan Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) faoliyat yuritadi. Prezident uning boshlig‘ini tayinlaydi, bu esa uning mustaqilligiga to‘sqinlik qiladi⁷⁵. AOKA ommaviy axborot vositalari, xususan, bosma va onlayn ommaviy axborot vositalari, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar va Telegram kabi tezkor xabar almashish ilovalari ustidan o‘z nazorati va monitoringini o‘rnatadi. Tartibga soluvchi organ nazorat qilinadigan axborot manbalari faoliyatini noaniq va o‘ta umumiy asoslarga ko‘ra to‘xtatishi mumkin.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligini shaffoflik va jamoatchilik oldida hisobdorlik mezonlariga amal qiladigan, aniq vakolatlariga ega bo‘lgan mustaqil va xolis nazorat organiga aylantirish imkoniyatini ko‘rib chiqish lozim. Uning a‘zolarini tayinlash tizimi vakillikning xilma-xilligini ta’minlashi va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi zarur.

⁷¹ [FSHXPga berilgan 34-umumiy izohlarning](#) 47-bandida “Ishtirokchi-davlatlar tuhmatni jinoiy javobgarlikka tortmaslik masalasini ko‘rib chiqishlari va jinoyat qonunchiligining qo‘llanilishida, faqat eng og‘ir holatlarni istisno qilgan holda, buning uchun qamoq jazosi hech qachon tegishli jazo emasligi hisobga olinishi kerak”ligi ta’kidlanadi.

⁷² [FSHXPga berilgan 34-umumiy izohlarning](#) 38-bandida qayd etilishicha, “barcha jamoat arboblari, jumladan, davlat yoki hukumat rahbarlari kabi oliy siyosiy hokimiyatni amalga oshiruvchi shaxslar qonuniy ravishda tanqid va siyosiy qarshilikka duchor bo‘lishadi. [...] Qonunlar faqat shubha ostidagi shaxsning shaxsiga qarab qattiqroq jazo belgilamasligi lozim”.

⁷³ 2021-yilgi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonda davlat organlaridan ma’lumotlarni so‘rash va olish tartibi va muddatlari belgilangan hamda axborotdan foydalanishni osonlashtirish maqsadida “ochiq ma’lumotlar” veb-saytlari ishga tushirilgan. Shu bilan birga, OAV vakillari davlat organlarining muntazam faoliyati to‘g‘risida jamoatchilikka hisobot berishlari cheklanganligini ta’kidladilar.

⁷⁴ 2023-yilda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) so‘z erkinligi, axborotdan foydalanish va ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi amaldagi sakkizta qonunga o‘zgartirish va kodlashtirishni nazarda tutuvchi Axborot kodeksining qayta ko‘rib chiqilgan loyihasini e’lon qildi. DIIHB va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining OAV erkinligi masalalari bo‘yicha vakili [Axborot kodeksi loyihasi bo‘yicha qo‘shma hisobotida](#) qayd etilishicha, Kodeks ijobiy elementlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, u xalqaro standartlarga va YXHTning bu boradagi majburiyatlariga muvofiqligini ta’minlash uchun so‘z erkinligi va ommaviy axborot vositalari erkinligi sohasida takomillashtirilishi lozim bo‘lgan qoidalarni ham o‘z ichiga oladi.

⁷⁵ [FSHXPga berilgan 34-umumiy izohlarning](#) 39-bandida aytilishicha, “Haligacha buni qilmagan ishtirokchi-davlatlarga e’firga uzatish uchun arizalarni ko‘rib chiqish va litsenziyalar berish vakolatiga ega bo‘lgan, e’firga uzatish faoliyatini litsenziyalovchi mustaqil va jamoatchilik organini tashkil etishga da’vat etiladi”.

DIIHBning avvalgi tavsiyalariga qaramay, 12 ta milliy telekanal, 14 ta mintaqaviy teleradiokompaniya va to‘rtta radiostansiyaga ega bo‘lgan Milliy teleradiokompaniya (MTRK) haqiqiy ommaviy axborot vositalariga aylanmagan davlat media tashkiloti bo‘lib qolmoqda. MTRK raisi va o‘rinbosarlari hukumat tomonidan tayinlanadi va unga hisobot beradi, uning vazifasi davlat faoliyatiga ko‘maklashishni o‘z ichiga oladi. Kuzatuv davrida davlat ommaviy axborot vositalari prezident faoliyati va erishgan yutuqlarini asosan oddiy va maxsus ko‘rsatuv hamda yangiliklarda yoritib bordi.

Milliy teleradiokompaniyani davlat faoliyatini yoritish bo‘yicha har qanday talablarni bekor qilish, aniq belgilangan jamoatchilik mandatini, shuningdek, tahririyat mustaqilligini, moliyaviy mustaqillikni, har qanday davlat muassasasidan aniq ajralib chiqishni va uning kengashi a‘zolarini tanlashning ochiq va raqobatli jarayonini kafolatlovchi qoidalarni joriy etish orqali haqiqiy jamoatchilik xizmatlarini yetkazib beruvchiga aylantirish masalasini ko‘rib chiqish zarur.

OAVda saylovoldi kampaniyasini yoritish qoidalari davlat teleradioeshittirishlari va bosma OAVda bepul efir vaqti va bo‘sh joyni batafsil tafsiflaydi, davlat va xususiy ommaviy axborot vositalarida pullik siyosiy reklamaga ruxsat beradi, hamda saylov ishtirokchilarining barcha OAV tomonidan tahririyatning adolatli va muvozanatli yoritilishini talab qiladi⁷⁶. MSK ommaviy axborot vositalarining yoritilishi ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi, AOKA esa saylovlarni boshqarish organiga har kuni monitoring hisobotlarini taqdim etishi shart. AOKAning DIIHB SKMga ma‘lum qilishicha, u teleradioxizmatlar, bosma va onlayn ommaviy axborot vositalari, shuningdek, raqamli platformalarni kuzatib boradi. MSKning DIIHB SKMga bildirishicha esa, u AOKAdan muntazam ravishda monitoring hisobotlarini olgan, shu davrda hech qanday qoidabuzarliklar aniqlanmagan va hech qanday shikoyatlar kelib tushmagan. Biroq na MSK, na AOKA monitoring va rioya qilish mexanizmi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor qilmadi, bu esa jarayonning shaffofligiga putur yetkazadi.

C. OAV MONITORINGI NATIJALARI

DIIHB monitoringiga ko‘ra, davlatga qarashli milliy TV kanallar nomzodlarga bepul efir vaqti taklif qilgan va qonunga muvofiq saylovoldi debatlarini tashkil etgan⁷⁷. Hududiy telekanallar ham muayyan bepul efir vaqtini ta‘minlashi shart edi va siyosiy partiyalar bundan yetarlicha foydalandilar. Davlat milliy telekanallari o‘zlarining yangiliklar ruknidagi saylovlarga ajratilgan qismida nomzodlarning yetarlicha muvozanatli yoritilishini ta‘minladi. Biroq ma‘lumotlar asosan prezidentga qaratilgan bo‘lib, uning faoliyati beshta siyosiy partiyaning barchasidan ko‘ra ko‘proq yoritilgan⁷⁸. Prezident o‘zining rasmiy faoliyatini yorituvchi boshqa dasturlarda ham keng yoritildi.

Umuman olganda, xususiy telekanallar va onlayn OAV saylovga oid yangiliklarni cheklangan holda taqdim etdi, siyosiy partiyalar dasturlari bo‘yicha tahliliy reportajlar berilmadi, ular birinchi navbatda

⁷⁶ Saylov kodeksi, MSKning 1384, 1345 va 952-sonli qarorlari saylovlarni ommaviy axborot vositalarida yoritishni tartibga soladi.

⁷⁷ DIIHB SKM 2024-yil 5-oktabrdan boshlab to‘rtta telekanal (*O‘zbekiston* va *O‘zbekiston24* davlat telekanallari, *UzReport TV* va *Sevimli* xususiy telekanallar) har kuni soat 17:00 dan yarim tungacha hamda beshta xususiy internet OAVda (*Kun.uz*, *Daryo.uz*, *Gazeta.uz*, *Podrono.uz* va *Qalampir.uz*) miqdoriy va sifat bo‘yicha baholash o‘tkazdi.

⁷⁸ O‘zbekiston24 yangiliklar “saylovoldi bloki”da siyosiy partiyalarning yoritilishi: O‘zLiDeP – 18%, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi – 21%, O‘zXDP – 21%, Sotsial-demokratik partiya – 22%, O‘zbekiston Ekologik partiyasi – 18%. *O‘zbekiston*: O‘zLiDeP – 23%, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi – 22%, O‘zXDP – 20%, Sotsial-demokratik partiya – 18%, O‘zbekiston Ekologik partiyasi – 17%. Prezident *O‘zbekiston-24* telekanali yangiliklarining umumiy hajmining 49 foizida yoritilgan bo‘lsa, barcha boshqa siyosiy partiyalar uchun uchun 36 % efir vaqti sarflandi. Xuddi shunday, prezident “*O‘zbekiston*” telekanalidagi yangiliklar umumiy hajmining 54 foizida ko‘rsatilgan bo‘lsa, barcha beshta siyosiy partiya uchun atigi 30 foiz efir vaqti ajratildi.

saylovoldi tadbirlariga e’tibor qaratishdi. Xususiyl OAV fuqarolarga qimmatli ma’lumotlarni taqdim etishdan ko‘ra, partiyalarga saylovoldi kampaniyasi uchun qo‘shimcha platforma taklif qilishni afzal ko‘rdi. OAV va jurnalist etikasiiga hamda MSKning yangiliklarni adolatli va muvozanatli yoritish talabiga zid ravishda, xususiyl telekanallar efigra bergan materiallarida ba’zi pulli yangiliklarni ham qo‘shgan⁷⁹. Xuddi shunday, yangiliklar saytlaridagi maqolalar ko‘pincha partiyalar tomonidan taqdim etilgan reklama materiallari sifatida taassurot qoldirdi. Qonuniyl talab yo‘qligi sababli, telekanallar va onlayn OAV ushbu materiallarni har doim ham pulli deb belgilamagan, bu esa shaffoflik tamoyiliga zid, qolaversa, axborot izlash va olish huquqini buzgan⁸⁰.

Haq to‘lanuvchi siyosiy kontent ham oflayn, ham onlayn sifatida aniq belgilanishi kerak va efigra uzatuvchilar tahririyat kontenti va siyosiy reklamani aniq farqlash uchun o‘zlarining axborot dasturlaridan pullik materialni olib tashlashlari zarur.

Ijoiyl tashabbus sifatida beshta xususiyl telekanal hamkorlikda barcha partiya vakillari o‘rtasida har hafta beshta debat tashkil etib, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri efigra uzatildi⁸¹. Debatlar nomzodlarga o‘z g‘oyalarini yetkazish va dasturlarini muhokama qilish uchun yaxshi platforma bo‘ldi, biroq ular praym-taymda emas, balki kechki payt, soat 17:00 da efigra uzatildi va bu ularning ehtimoliyl auditoriyasini qisqartirdi. Yangiliklar sayti, shuningdek, ilk marta saylovoldi debatlarini muvaffaqiyatli tashkil etdi⁸².

Davlat milliy telekanallari o‘zlarining “saylovoldi bloki”da erkak va ayol nomzodlarga deyarli teng imkoniyat berishga harakat qilishdi⁸³. Siyosiy partiyalar xususiyl telekanallar tomonidan tashkil etilgan saylovoldi munozaralariga asosan erkak vakillarni yubordilar, faqat so‘nggi gender mavzusidagi munozaralarida barcha siyosiy partiyalar ayol vakil yubordilar.

XI. SAYLOVDA NIZOLARNI HAL QILISH MASALASI

Jismoniy va yuridik shaxslar saylov komissiyalariga shikoyat qilishlari mumkin. Saylovni boshqarish organlari Saylov kodeksining buzilishi to‘g‘risidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqib, ularning qarorlari sud tomonidan ko‘rib chiqilishi shart. Saylov organining xatti-harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar faqat ma‘muriyl sudlarga berilishi lozim. Oliy sud saylov natijalari bilan bog‘liq nizolarni ko‘rib chiqadi. DIIHBning avvalgi tavsiyasiga ko‘ra, ariza berish to‘lovlaridan voz kechilgan, biroq sudning ixtiyoriga ko‘ra sud xarajatlari tomonlar o‘rtasida taqsimlanishi mumkin.

⁷⁹ [Jurnalistlar xalqaro federatsiyasi \(IFJ\) Jurnalistlar etikasi global xartiyasining](#) 13-moddasida shunday deyiladi: “Jurnalist matbuot erkinligidan boshqa manfaatlarga xizmat qilmasligi kerak... U o‘z faoliylati bilan reklama yoki targ‘ibot faoliylati o‘rtasida har qanday chalkashlikka yo‘l qo‘ymaydi...” MSKning 1345-sonli qarorining 30-moddasi OAVdan yangiliklar va axborot dasturlarida adolatli va muvozanatli yoritishni ta‘minlashni talab qiladi.

⁸⁰ [Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yildagi Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining](#) 7.4-moddasida qayd etilishicha, “[har bir] ishtirokchi davlat o‘z ichki qonunchiligining asosiy tamoyillariga muvofiq shaffoflikni ta‘minlovchi va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olovchi tizimlarni qabul qilish, qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlashga harakat qiladi”. [FSHXPga berilgan 25-umumiyl izohning](#) 19-bandida ta‘kidlanishicha, “[...] Saylovchilar zo‘ravonlik yoki zo‘ravonlik bilan tahdid qilish, majburlash, undash yoki har qanday turdagi manipulyativ aralashuvsiz mustaqil ravishda o‘z fikrini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak”.

⁸¹ O‘zbekiston elektron ommaviyl axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi va Xalqaro press-klub beshta xususiyl telekanal – *Sevimili*, *UzReport*, *ZOR TV*, *My5* va *Renassans TV* bilan beshta to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylovoldi debatlarini tashkil qildi. Davlat televideniyesi o‘z kanallarida rus va ingliz tillariga sinxron tarjimani taqdim etish orqali bu jarayonlarga o‘z hissasini qo‘shdi. Mazkur debatlar Telegram va YouTube‘da ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatildi, ularda imo-ishora tilidan ham foydalanildi.

⁸² *Kun.uz* – saylovoldi debatlarini tashkil etgan axborot sayti.

⁸³ “O‘zbekiston24” telekanali yangiliklaridagi “saylovoldi bloki”da erkak nomzodlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqishlari 55 foizni, ayol nomzodlarning chiqishlari esa, 45 foizini tashkil qildi. Xuddi shunday, “O‘zbekiston TV” telekanalida erkak nomzodlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqishlari 57 foizini, ayol nomzodlarniki esa 43 foizini tashkil etgan.

Saylov jarayonlaridagi nizolarini hal qilish tizimi saylov ma’uriyati va sudlar uchun saylovga oid nizolarni ko‘rib chiqish muddati ham saylovni boshqarish, ham sudlar uchun eng yaxshi xalqaro tajribaga mos keladi⁸⁴. Quvonarlisi shundaki, DIIHBning avvalgi tavsiyalariga muvofiq, komissiyaga yuborilgan barcha shikoyatlar maxsus reyestrda e’lon qilinishi zarur, manfaatdor tomonlar tinglovlarda ishtirok etishlari mumkin hamda saylov komissiyalari shikoyatchilarni qaror haqida xabardor qilishi lozim bo’ladi. Siyosiy partiyalar, nomzodlar, ishonchli vakillar, kuzatuvchilar va saylovchilar saylov kampaniyasi davrida saylov qonunchiligining har qanday masalalari yoki buzilishlari bo‘yicha HSK va USKlarga shikoyat qilishlari mumkin va ushbu qarorlar bo‘yicha ehtimoliy shikoyatlar sud tomonidan besh kun ichida ko‘rib chiqilishi lozim.

MSK 26-iyuldan saylov kunigacha va saylov natijalari e’lon qilingunga qadar shikoyatlar ro‘yxatini muntazam ravishda e’lon qilib bordi. Shu davr mobaynida MSKga 199 ta shikoyat kelib tushdi va ular o‘z veb-saytida e’lon qilindi, ulardan 54 tasi parlament saylovlari taalluqli bo‘lib, asosan nomzod ko‘rsatish yoki ma’lumot olish tartib-qoidalariga taalluqli edi⁸⁵. Biroq shikoyatlar ro‘yxatida har bir holat bo‘yicha ma’lumotlar ko‘p berilmagan, MSK esa bu murojatlarning to‘liq matni bilan tanishishtirmagan. Bundan tashqari, shikoyatlar jamoatchilik oldida muhokama qilinmagan, bu esa shaffoflikka putur yetkazgan va samarali huquqiy himoya vositalarining xalqaro standartlariga zid bo‘lgan.⁸⁶

Saylovga oid nizolarni hal qilish jarayonining shaffofligini ta’minlash, va samarali huquqiy himoya vositasi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida saylov komissiyalari shikoyatlarni ochiq majlislarda ko‘rib chiqishlari va bu bilan bog‘liq barcha ma’lumotlarni oshkor qilishlari kerak.

Saylov komissiyalari shikoyatlarni ro‘yxatga olish bo‘yicha hech qanday ma’lumot taqdim etmagan yoki talablarni qo‘llamagan bo‘lsa-da, DIIHB SKM kuzatuvchilari quyi saylov komissiyalariga hech qanday shikoyat kelib tushmaganini ma’lum qildi. DIIHB SKMning ayrim suhbatdoshlari sud hokimiyatining mustaqilligining yo‘qligi jamoatchilik ishonchini pasaytirishda davom etayotganini, natijada sudda asosiy erkinliklarning buzilishi yoki saylov bilan bog‘liq nizolar bo‘yicha da’vo qilingan ishlarning kam sonini ta’kidladi⁸⁷.

⁸⁴ Saylov komissiyalari va sudlar shikoyatlarni ko‘pi bilan uch kun, agar shikoyat saylov kundan olti kun oldin yoki saylov kuni berilgan bo‘lsa, darhol ko‘rib chiqishlari kerak.

⁸⁵ 1-oktabr kuni MSK tomonidan fuqarolarning ma’lumot qidirish va shikoyatlar bilan murojaat qilishlari uchun qo‘ng‘iroqlar markazi tashkil etildi. 1-oktabrdan 31-oktabrgacha koll-markazga 1030 ta murojaat kelib tushgan. MSK saylov qonunchiligining beshta ehtimoliy buzilishi MSK tomonidan tekshirilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etilganini ma’lum qildi. Qo‘ng‘iroqlar markaziga MSK majlisida ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan masalalar bo‘yicha hech qanday so‘rov kelib tushmagan.

⁸⁶ [FSHXPning](#) 2.3-moddasi har bir davlatdan “huquqlari yoki erkinliklari buzilgan har qanday shaxs samarali huquqiy himoya vositasiga ega bo‘lishini” va “vakolatli organlar bunday himoya vositalarini kafolatlashi kerakligini” talab qiladi. [YXHTning 1990-yilgi Kopengagen hujjatining](#) 5.10-bandida shunday deyilgan: “har bir shaxs asosiy huquqlarga rioya etilishini kafolatlash va huquqiy yaxlitlikni ta’minlash uchun ma’uriy qarorlarga qarshi samarali huquqiy himoya vositalariga egadir”.

⁸⁷ BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo‘mitasi (CESCR) [O‘zbekistonning 2022-yilgi uchinchi davriy hisoboti bo‘yicha yakuniy kuzatishlarida](#) “sud hokimiyati mustaqilligi bilan bog‘liq turli kamchiliklardan” xavotirini bildirib, ishtirokchi davlatga “mustaqillikni ta’minlash bo‘yicha sa’y-harakatlarni kuchaytirishni” tavsiya qildi. Qolaversa, “sud hokimiyatining xolisligi inson huquqlarining amalga oshirilishini kafolatlash vositasi” ekanligini ta’kidladi. Shuningdek, [BMT Inson huquqlari qo‘mitasining \(HRC\) O‘zbekistondagi sudyalari va advokatlarining mustaqilligi bo‘yicha maxsus ma’ruzachisining 2020-yilgi hisobotiga](#) qarang. DIIHB SKMning inson huquqlari faollari bilan o‘tkazgan uchrashuvlari nizolarni hal qilish va davlatning xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilishning huquqiy yo‘llari murakkab ekanligi va sudlar har doim ham tartib-qoidalariga rioya qilmasligini tasdiqladi.

XII. SAYLOVLARNI KUZATISH

YXHT majburiyatlari va DIIHBning avvalgi tavsiyalariga qaramay, saylov qonunchiligida saylovlarni fuqarolar tomonidan kuzatilishi (fuqarolik kuzatuv) to‘g‘risidagi qoidalar mavjud emas⁸⁸. Xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiyalar, mahalla qo‘mitalari va ommaviy axborot vositalari vakillari saylovlarda kuzatuvchi sifatida qatnashish huquqiga ega. MSK xalqaro kuzatuvchilarni akkreditatsiya qiladi, boshqalari esa HSK tomonidan akkreditatsiya qilinadi.⁸⁹ Bu saylovlar uchun MSK 851 nafar xalqaro kuzatuvchini, 10 mingdan ortiq mahalliy kuzatuvchi va siyosiy partiyalardan 55 mingga yaqin kuzatuvchini ro‘yxatga oldi. OAV Saylov uchastkalari va MSK binolariga kirish uchun saylov kuniga kamida o‘n kun qolganda akkreditatsiyadan o‘tish uchun so‘rov yuborishi lozim⁹⁰.

Saylov kodeksi va boshqa tegishli qonun hujjatlariga YXHT majburiyatlariga muvofiq fuqarolarning saylovni kuzatishni ta‘minlash uchun o‘zgartirishlar kiritilishi zarur.

DIIHB SKMning ba‘zi suhbatdoshlari chet eldan moliyalashtirishdagi cheklovlarni fuqarolik jamiyati, shu jumladan faoliyati saylovga yo‘qaldirilgan tashkilotlar rivojlanishi yo‘lidagi eng asosiy to‘siq sifatida e‘tirof etdilar. FJT ro‘yxatga olishdagi cheklovchi talablar, ularning mustaqilligiga putur yetkazadigan keng qamrovli hukumat nazoratiga duch keladilar. Davlat hamkoridan xorijiy moliyalashtirish ma‘lumotlarini berishni talab qilish, ayniqsa, FJTlarining mustaqil faoliyati va birlashmalar erkinligini cheklaydi⁹¹.

Fuqarolik jamiyati tashkilotlari birlashmalarining amaliy avtonomiyasi va erkinligini cheklovchi talablarni xalqaro standartlarga muvofiq bekor qilish masalasini ko‘rib chiqish lozim.

XIII. MUDDATIDAN OLDIN OVOZ BERISH VA SAYLOV KUNI

Muddatidan oldin ovoz berish 16-oktabrdan 23-oktabrgacha davom etdi. DIIHB SKM muddatidan oldin ovoz berishni muntazam kuzatib bormagan bo‘lsa-da, DIIHB SKMning uzoq muddatli kuzatuvchilari muddatidan oldin ovoz berish davrida har bir hududdagi bir qator saylov uchastkalariga tashrif buyurdi. Ular umumiy tartib-qoidalarga rioya qilinganini ta‘kidladilar, ammo ba‘zi saylov uchastkalarida bir xil imzolar va muddatidan oldin ovoz berish davri tugashidan oldin

⁸⁸ [Kopengagen hujjatining](#) 8-bandida keltirilishicha, “Ishtirokchi davlatlar xorijiy va mahalliy kuzatuvchilar bo‘lishi saylovlar o‘tkazilayotgan davlatlar uchun saylov jarayonini yaxshilashi mumkin deb hisoblaydi. Shuning uchun ular YXHTga a‘zo boshqa har qanday davlatdan kuzatuvchilarni va buni xohlovchi tegishli xususiy muassasalar va tashkilotlarni o‘zlarining milliy saylov tartib-qoidalarini qonun tomonidan ruxsat etilgan darajada kuzatishga taklif qilishadi. Ular, shuningdek, mahalliy darajada o‘tkaziladigan saylov jarayonlarini ham shu kabi to‘siqsiz o‘rganishni osonlashtirishga intiladi. Bunday kuzatuvchilar saylov jarayonlariga aralashmaslik majburiyatini oladilar”.

⁸⁹ MSK akkreditatsiya jarayonini soddalashtirish maqsadida onlayn platforma yaratdi.

⁹⁰ Xorijiy ommaviy axborot vositalari akkreditatsiya uchun Tashqi ishlar vazirligiga murojaat qilishlari kerak bo‘ldi. Ushbu saylovlarda 1068 ta mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari akkreditatsiyadan o‘tkazildi.

⁹¹ [BMTning Tinch yig‘ilishlar o‘tkazish erkinligi huquqlari bo‘yicha maxsus ma‘ruzachisining 2023-yilgi ma‘ruzasining 20-bandiga qarang.](#) stating that “the ability of associations to access funding and other resources from domestic, foreign and international sources is an integral part of the right to freedom of association. unda “birlashmalarining mahalliy, xorijiy va xalqaro manbalardan moliyalashtirish va boshqa resurslardan foydalanish imkoniyati birlashmalar erkinligi huquqining ajralmas qismidir. Xalqaro huquqqa ko‘ra, muammoli cheklovlar, jumladan, moliyaviy mablag‘lardan foydalanishni bevosita taqiqlash; fuqarolik jamiyati institutlarini moliyalashtirishdan oldin hukumat ruxsatini olishlarini talab qilish; markazlashtirilgan davlat jamg‘armasiga mablag‘larni o‘tkazishni talab qilish; chet eldan moliyalashtirilgan fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlari yoki inson huquqlarini himoya qilish faoliyati bilan shug‘ullanishini taqiqlash yoki cheklash”, deya ta‘kidlangan.

barcha ajratilgan byulletenlar (10 foiz) ishlatib bo'lingan holatlarni kuzatdilar⁹². MSK ma'lumotlariga ko'ra, muddatidan oldin ovoz berishda mamlakat ichida hamda xorijdagi diplomatik va konsullik muassasalari orqali jami 1 148 615 nafar saylovchi ishtirok etdi.

Saylov kuni tinch va tartibli o'tdi, biroq ko'plab qonunbuzarliklar, xizmat mavqeini suiiste'mol qilish holatlari, protsessual va texnik nosozliklar jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatdi. MSK saylovchilarning 74,7 foizi saylovda ishtirok etganini e'lon qildi.

A. OCHILISH TADBIRLARI VA OVOZ BERISH

Saylov uchastkalarining ochilishi 97 kuzatuvning 94 tasida ijobiy baholandi. Tartib-taomillarga aksariyat hollarda rioya qilindi, ammo 9 ta holatda USK a'zolari tartib-taomillar bilan tanish emas edilar. Bir holatda USKga a'zo bo'lmagan shaxslar USKni boshqarishga harakat qilgan yoki uning ishiga aralashgan, boshqa holatda esa DIIHB kuzatuvchilari USKning ochilish jarayonlarini cheklovlarsiz kuzata olmagan.

Kuzatilayotgan 1053 ta saylov uchastkasining 12 foizida ovoz berish jarayoni salbiy baholangani esa, jiddiy muammo hisoblanadi. SKXM kuzatuvchilari, ayniqsa, saylovchilarning ovoz berish huquqini tekshirish va bir necha marta ovoz berishning oldini olishga qaratilgan xavfsizlik choralarning yetarli darajada amalga oshirilmagani bo'yicha tez-tez kuzatilgan jiddiy protsessual qoidabuzarliklar haqida xabar beridilar. Saylov kuni davomida SKXM kuzatuvchilari ovoz berishda qatnashgan saylovchilar soni va rasman e'lon qilingan saylovchilarning ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutni qayd etdilar

SKXM kuzatuvchilari kuzatuvlarning 24 foizida asosiy va qo'shimcha saylovchilar ro'yxatida bir xil imzolar borligini ma'lum qildilar. Kuzatilayotgan uchastkalarining 21 foizida saylovchilarning shaxsini tekshirish qoidalari ham buzildi, bunda uchastka saylov komissiyasi a'zolari qo'shimcha ro'yxatga kiritishdan oldin saylovchilarning ismlarini elektron ro'yxatdan tekshira olishmagan. Uchastka saylov komissiyasi a'zolari tomonidan saylovchilar ro'yxati ustida bajargan noto'g'ri harakatlari saylov jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi va bu qonunbuzarliklarga qarshi tekshirishning muhim kafolatini xavf ostiga qo'ydi⁹³. Qolaversa, USKlarining 11 foizi saylovchilarning elektron ro'yxatidan foydalanish imkoniga ega bo'lmadi, bu esa bir necha marta ovoz berishning oldini olishga qaratilgan muhim kafolatlarni buzdi. Kuzatuvlarning 11 foizida USK a'zolari saylovchilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini doimiy ravishda tekshirmagan, 7 foizida esa saylovchilarga shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki pasportsiz ovoz berishga ruxsat berilgan.

Boshqa jiddiy va protsessual qonunbuzarliklar qatoriga bir necha marta ovoz berish va bironing o'rniga ovoz berish (har biri 1 foizdan), 18 saylov uchastkasida saylov byulletenlarini to'plam shaklida qutilarga tashlanish holatlari (2%), saylovchilarga ruxsat etilmagan yordam (6%), saylov qutilarining noto'g'ri muhrlanganligi (5%) aniqlangan bo'lsa, kuzatuvlarning 3 foizida erta ovoz berishda olingan saylov byulletenlarining konvertlari xavfsiz saqlanmaganligi aniqlangan.

Kuzatilayotgan saylov uchastkalarining 83 foizida siyosiy partiyalar, OAV vakillari, mahalla qo'mitalari kuzatuvchilari ishtirok etib, 26 holatda ular USK ishiga yo'l-yo'riq ko'rsatgan yoki aralashgan. SKXM kuzatuvchilari tashrif buyurgan saylov uchastkalarining 10 foizida ruxsat

⁹² MSKning 8-oktabrdagi 1396-sonli qaroriga ko'ra, USKlar 13-oktabrga qadar tuman va shahar saylov komissiyalaridan jami saylovchilarning 10 foizi uchun byulletenlar olinishini ta'minlashi kerak edi.

⁹³ Saylov byulletenlari saylovchilar ro'yxatidagi imzolar soniga mos kelishi zarur. [Venetsiya Komissiyasining Saylov masalalarida adolatli amaliyot kodeksiga tushuntirish hisobotining](#) 32-bandida aytilishicha, "Ovoz berishning adolatligi faqat ikkita asosiy mezon bilan baholanishi kerak: ovoz bergan saylovchilar soni va saylov qutisidagi byulletenlar soni. Birinchi ko'rsatkichni saylovchilar ro'yxatidagi imzolar soni bilan aniqlash mumkin". Saylov kodeksi saylovchilardan saylovchilar ro'yxatiga, shu jumladan muddatidan oldin ovoz berish paytida imzo qo'yishni ham talab qiladi.

etilmagan shaxslar borligini ham qayd etdilar. Kuzatuvlarning 4 foizida saylov uchastkalarida begona shaxslar mavjudligini qayd etishdi, ovoz berish tartib-qoidalariga uchastkaga kelgan fuqarolarga aniq ko'rsatilmagan, 3 foiz kuzatuvchilar esa cheklovlarga duch kelishdi. 57 ta holatda (5 foiz) kuzatuvchilarga saylovchilar ro'yxati va qo'shimcha saylovchilar ro'yxatini ko'rishga ruxsat berilmagan, bu esa jarayonning shaffofligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, to'laqonli kuzatishga to'sqinlik qildi.

Kuzatilayotgan saylov uchastkalarining 98 foizida ovoz berishning risoladagidek tartiblari o'rnatilgan bo'lsa-da, kuzatuvlarning 10 foizida ular maxfiylikni ta'minlamagan. Bundan tashqari, kuzatuvlarning 16 foizida saylov uchastkalariga o'rnatilgan kameralar maxfiylikni buzadigan tarzda joylashtirilgan. Ko'pincha ayollarning ishtirokiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan oilaviy yoki guruh bo'lib ovoz berish 3 foiz (35 ta holat) kuzatuvlarda qayd etilgan.

Ovoz berish jarayonining halolligini ta'minlash uchun hukumat organlari ovoz berish jarayonidagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha samarali choralar ko'rishi hamda takroriy ovoz berish, ishonchnoma bo'yicha ovoz berish va saylov byulletenlarini to'plam shaklida qutilarga tashlanish holatlari kabi muammolarining oldini olish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirishi zarur.

B. OVOZ BERISH JARAYONLARINING YOPILISHI VA OVOZLARNI SANASH

100 ta saylov uchastkasidan 43 tasida yopilish va ovozlarni sanash jarayonlari salbiy baholandi, bunga esa, asosan, muhim protsessual xatoliklar va kamchiliklar sabab bo'ldi. Kuzatilayotgan saylov uchastkalarining yarmidan ko'pida ovozlarni sanab chiqish tartibiga rioya etilmagan, USK a'zolari olingan byulletenlarning umumiy sonini aniqlay olmagan (28 ta holat), foydalanilmagan va buzilgan saylov byulletenlarini sanash va bekor qilishga e'tibor bermagan (mos ravishda, 32 ta va 29 ta holatda). Bundan tashqari, USK a'zolari saylovchilarga berilgan saylov byulletenlarining umumiy sonini aniqlamagan (36 ta holat), shuningdek, saylovchilarning asosiy va qo'shimcha ro'yxatlaridagi imzolarni (22 ta holat) hisoblanmagan. Bu kamchiliklarga, tabiiyki, ko'z yumib bo'lmaydi va saylov uchastkalarida kuzatilgan ovozlarni sanash jarayonining halol bo'lganligi borasida xavotir uyg'otadi.

Saylov qutilari ochilganda, SKXM kuzatuvchilari 11 holatda saylov byulletenlarini to'plam shaklida qutilarga tashlanganlik holatlari haqida xabar berishdi. 38 holatda saylov byulletenlari belgilangan tartibda sanalmagan, 25 holatda saylov qutisidagi byulletenlar soni saylovchilar ro'yxatidagi imzolar soniga mos kelmasligi aniqlangan. Kuzatilgan 22 ta holatda natijalar bayonnomalariidagi raqamlarga mos kelmagan. Shuningdek, 26 ta holatda USK yakuniy bayonnomaarni to'ldirishga qiynalgan. SKXM rasmiy bayonnomalarni oldindan imzolashning 14 ta holatini, mos ravishda 10 va 11 holatda saylovchilar ro'yxatidagi yozuvlar va bayonnoma ma'lumotlarini qalbakilashtirish holatlarini qayd etdi. Kuzatilayotgan 30 ta saylov uchastkasida ovoz berish natijalari qonun talabiga binoan bayonnomalarda ko'rsatilmagan. Bundan tashqari, kuzatuvlarning yarmidan ko'prog'ida bunday bayonnomalarning nusxasi saylov uchastkalarining AKT tizimi orqali saylov komissiyalariga o'z vaqtida yuborilmagan. 7 ta holatda uchastka saylov komissiyalari natijalar bayonnomalari qayta ko'rib chiqishga va HSKga yangi versiyalarni taqdim etishga majbur bo'ldilar.

SKXM kuzatuvchilari 15 holatda cheklovlarga duch kelishdi, 16 holatda esa ular ovozlarni sanab chiqish jarayonlarini yetarli darajada kuzata olmadilar, bu ovozlarni sanash jarayonining shaffofligiga putur yetkazdi. Umuman olganda, ovozlarni sanash jarayoni YXHTning 1990-yilgi Kopengagen hujjati 7.4-bandiga muvofiq, saylov byulletenlari to'g'ri sanalganligi yuzasidan jiddiy xavotir uyg'otdi⁹⁴.

⁹⁴ [YXHTning 1990-yilgi Kopengagen hujjatining](#) 7.4-bandida aytilishicha, ishtirokchi davlatlar yashirin ovoz berish yoki unga tenglashtirilgan erkin ovoz berish tartib-qoidalarini, shuningdek, ovozlarni adolatli sanab chiqish va rasmiy natijalar e'lon qilindigan hisobot taqdim qilinishini ta'minlaydi.

C. OVOZ BERISH NATIJALARINI JADVALGA SOLISH VA NATIJALARNI E’LON QILISH

SKXM 14 ta HSKning barchasida ovoz berish natijalari jadvallarni kuzatdi va to‘laqonli kuzatishga to‘sqinlik qilish holatlari oqibatida shaffoflikka putur yetkazilgani tufayli, ularning yarmini salbiy baholadi. Muhim muammolar qatoriga 11 ta HSKda jarayonlarning shaffofligi cheklanganligi, 8 ta HSKda SKXM kuzatuvchilari bilan to‘liq hamkorlikning yo‘qligi va 10 ta HSKda USK natijalari bayonnomalarining elektron yuklanishini kuzatishga ruxsat bermaslik kabi holatlar kiradi. Ba’zi HSKlarda USK a’zolari har bir bayonnoma uchun ikkitadan shakl olib kelishdi, bayonnomalarni almashishdi, raqamlarni qalam bilan o‘chirishdi va bayonnomalarga tuzatishlar kiritishdi, bayonnomalarni to‘ldirishdi va bayonnomalarni almashtirishdi. Kuzatuvchilar oltita HSKda muhim protsessual xatolar haqida xabar berishdi, ularning a’zolari USK bayonnomalaridagi raqamlarning mosligini doimiy ravishda tekshira olmagan.

Saylov jarayonining halol bo‘lishini ta’minlash va suiiste’mol qilish holatlarining oldini olish uchun Markaziy saylov komissiyasi hududiy va uchastka saylov komissiyalari uchun ovoz berish, ovozlarni sanab chiqish va natijalarni jadvalga solish tartib-qoidalarini to‘g‘ri amalga oshirishni ta’minlash maqsadida yanada samarali va ta’sirchan o‘quv dasturlarini ishlab chiqishi kerak. Markaziy saylov komissiyasi saylov komissiyalari xodimlarini tegishli tarzda o‘qitishni takomillashtirishi, bunda saylovchilar ro‘yxati bilan ishlashga va saylov kuni saylovchilarni ro‘yxatga olishga alohida e’tibor qarotishi lozim.

28-oktabr kuni MSK saylovning yakuniy natijalarni e’lon qildi, ammo uchastka saylov komissiyalari bo‘yicha saylov natijalarini e’lon qilmadi, bu esa DIIHBning uzoq yillik tavsiyasiga zid ravishda muhim himoya chorasini e’tibordan chetda qoldirib, shaffoflikni pasaytirdi.

Shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash maqsadida MSK saylov natijalarini saylov uchastkalari kesimida o‘z veb-saytida va ommabop formatda e’lon qilishi lozim.

XIV. TAVSIYALAR

Ushbu hujjatda keltirilgan barcha tavsiyalar O‘zbekistonda saylovlarni o‘tkazishni yanada takomillashtirish hamda ularni YXHT majburiyatlari, qolaversa, demokratik saylovlar bo‘yicha boshqa xalqaro majburiyatlar va standartlarga to‘liq muvofiqlashtirish bo‘yicha sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida taqdim etilgan. Mazkur tavsiyalar DIIHBning hali ko‘rib chiqilmagan avvalgi tavsiyalari bilan birgalikda ko‘rib chiqilishi zarur⁹⁵. DIIHB O‘zbekiston hukumatiga saylov jarayonini takomillashtirish va ushbu va avvalgi hisobotlarda keltirilgan tavsiyalarni ko‘rib chiqishda yordam berishga tayyor.

⁹⁵ 1990-yilgi YXHT Istanbul hujjatining 25-bandida YXHTga a’zo davlatlar “DIIHBning saylovga oid baholashlari va tavsiyalarini zudlik bilan kuzatib borish” majburiyatini olishlari kerakligi ta’kidlangan. Avvalgi tavsiyalarning bajarilishi DIIHB EOM tomonidan quyidagicha baholanadi: 2019-yilgi Parlament saylovlari bo‘yicha yakuniy hisobotning 12, 19, 25, 26, 31 va 32-tavsiyalari to‘liq bajarildi. 2019-yilgi yakuniy hisobotidagi 14, 15, 16 va 18-tavsiyalarning aksariyati amalga oshirildi. 2019-yilgi Yakuniy hisobotning 2, 9, 10, 11, 13, 17, 21 va 30-tavsiyalari, 2023-yilgi referendum Yakuniy hisobotining 13, 19 va 21-tavsiyalari, muddatidan oldingi prezidentlik saylovi Yakuniy hisobotining 8, 13, 15, 17 va 25-tavsiyalari qisman bajarildi. Shuningdek, tavsiyalarning ko‘rib chiqilish holatiga oid ma’lumot olish uchun DIIHBning [O‘zbekiston bo‘yicha saylovlarga oid tavsiyalarning ma’lumotlar bazasi bo‘limini](#) ko‘rib chiqing.

A. USTUVOR MAZMUNDAGI TAVSIYALAR

1. Hokimiyat alohida shaxslar va guruhlarining asossiz qonunchilik va amaliy cheklovlarsiz siyosiy partiyalar tuzish huquqini kafolatlashi shart.
2. Asosiy huquq va erkinliklarni tartibga soluvchi qonunchilik har qanday cheklovlar YXHT majburiyatlari, xalqaro standartlar va ilg‘or tajribalarga muvofiq qonuniylik, vakolatlilik, zarurat va mutanosiblik tamoyillariga muvofiqligini ta‘minlash uchun atroflicha qayta ko‘rib chiqilishi lozim.
3. Davlat va partiya o‘rtasidagi bo‘linishni ta‘minlash uchun ma‘muriy resurslarni suiiste‘mol qilish va davlat mansabdor shaxslarining saylovoldi kampaniyasida, shu jumladan nomzod sifatida ishtirok etishiga oid qoidalarga aniqlik kiritilishi lozim.
4. Hududiy saylov komissiyalari va uchastka saylov komissiyalari a‘zolarini ko‘rsatish va tayinlash markaziy va mahalliy hokimiyat organlaridan, mahallalardan mustaqil bo‘lgan holda qayta ko‘rib chiqilishi lozim.
5. Huquqiy baza mustaqil nomzodlar, shu jumladan, jamoat birlashmalari va fuqarolar guruhlariga nomzodlar ko‘rsatish huquqini kengaytirish orqali ovozga qo‘yish imkoniyatini ta‘minlashi zarur.
6. Takroriy ovoz berishning oldini olish va xalqaro ilg‘or tajribaga muvofiq saylovchilar ro‘yxatlarining yaxlitligini ta‘minlash uchun qo‘shimcha saylovchilar ro‘yxatlaridan noto‘g‘ri foydalanishga qarshi ishonchli kafolatlarni belgilash va ta‘minlash, shuningdek, ushbu ro‘yxatlarga kiritilgan saylovchilar sonini e‘lon qilish lozim.
7. Saylov kodeksi va boshqa tegishli qonun hujjatlariga YXHT majburiyatlariga muvofiq fuqarolarning saylovni kuzatishni ta‘minlash uchun o‘zgartirishlar kiritilishi zarur.
8. MSK shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlash uchun saylov natijalarini saylov uchastkalari kesimida o‘z veb-saytida mavjud formatlarda e‘lon qilishi kerak.
9. So‘z erkinligini samarali himoya qilish uchun OAV faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik har tomonlama o‘rganilishi va maslahatlashuv jarayonida va DIIHB tavsiyalariga muvofiq qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Har qanday cheklovlar, shu jumladan, internet-resurslardagi cheklovlar qonuniylik, legitimlik, zaruriyat va mutanosiblik tamoyillariga qat‘iy muvofiq bo‘lishi va sud nazorati ostida bo‘lishi kerak.

B. BOSHQA TAVSIYALAR

Huquqiy baza

10. Qonunchilikni YXHT majburiyatlari, xalqaro standartlar va ilg‘or tajribalarga yanada muvofiqlashtirish maqsadida qayta ko‘rib chiqish kerak. Navbatdagi huquqiy sharh inklyuziv va shaffof maslahatlashuv jarayoni orqali oldinda turgan saylovdan ancha oldin o‘tkazilishi kerak.

Saylovoldi kampaniyasi

11. Hukumat organlari huquqiy va ma'muriy choralar orqali saylovoldi kampaniyasining o'quvchilar va davlat tomonidan moliyalashtiriladigan muassasalar xodimlariga kampaniya tadbirlarida qatnashish uchun bosim o'tkazmasdan o'tkazilishini ta'minlashi kerak.

Ovoz berish kampaniyalarini moliyalashtirish

12. Siyosiy ishtirok va plyuralizmni rag'batlantirish uchun saylovoldi kampaniyalarini moliyalashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari xalqaro ilg'or tajribaga mos kelishi zarur. Bu jismoniy shaxslarga ham siyosiy partiyalarga, ham nomzodlarga ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha yagona limitlar va talablar doirasida xayriya qilishga ruxsat berishni o'z ichiga oladi.
13. Saylov kampaniyalarini moliyalashtirishning shaffofligi va samarali nazoratini amalga oshirish uchun qonunchilikka hisobot berish, ma'lumotlarni oshkor qilish va tekshirish bo'yicha keng qamrovli talablarni belgilash, shuningdek, ularga rioya qilmaganlik uchun o'z vaqtida, samarali, mutanosib va tiyib turuvchi jazo choralarini nazarda tutuvchi tuzatishlar kiritish zarur.

Ommaviy axborot vositalari

14. Tuhmat va haqorat jinoiy javobgarlikdan chiqarilishi, prezidentni omma oldida haqoratlash va unga tuhmat qilish to'g'risidagi qoidalar bekor qilinishi kerak.
15. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligini shaffoflik va jamoatchilik oldida hisobdorlik mezonlariga amal qiladigan, aniq vakolatlarga ega bo'lgan mustaqil va xolis nazorat organiga aylantirish imkoniyatini ko'rib chiqish lozim. Uning a'zolarini tayinlash tizimi vakillikning xilma-xilligini ta'minlashi va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi zarur.
16. Milliy teleradiokompaniyani davlat faoliyatini yoritish bo'yicha har qanday talablarni bekor qilish, aniq belgilangan jamoatchilik mandatini, shuningdek, tahririyat mustaqilligini, moliyaviy mustaqillikni, har qanday davlat muassasasidan aniq ajralib chiqishni va uning kengashi a'zolarini tanlashning ochiq va raqobatli jarayonini kafolatlovchi qoidalarni joriy etish orqali haqiqiy jamoatchilik xizmatlarini yetkazib beruvchiga aylantirish masalasini ko'rib chiqish zarur.
17. Haq to'lanuvchi siyosiy kontent ham oflayn, ham onlayn sifatida aniq belgilanishi kerak va efirga uzatuvchilar tahririyat kontenti va siyosiy reklamani aniq farqlash uchun o'zlarining axborot dasturlaridan pullik materialni olib tashlashlari zarur.

Saylovda nizolarni hal qilish masalasi

18. Saylovga oid nizolarni hal qilish jarayonining shaffofligini ta'minlash, va samarali huquqiy himoya vositasi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida saylov komissiyalari shikoyatlarni ochiq majlislarda ko'rib chiqishlari va bu bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni oshkor qilishlari kerak.

Saylovlarni kuzatish

19. Fuqarolik jamiyati tashkilotlari birlashmalarining amaliy avtonomiyasi va erkinligini cheklovchi talablarni xalqaro standartlarga muvofiq bekor qilish masalasini ko'rib chiqish lozim.

Saylov kuni

20. Ovoz berish jarayonining halolligini ta'minlash uchun hukumat organlari ovoz berish jarayonidagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha samarali choralar ko'rishi hamda takroriy ovoz berish, ishonchnoma bo'yicha ovoz berish va saylov byulletenlarini to'plam shaklida qutilarga tashlanish holatlari kabi muammolarining oldini olish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirishi zarur.
21. Saylov jarayonining halol bo'lishini ta'minlash va suiiste'mol qilish holatlarining oldini olish uchun Markaziy saylov komissiyasi hududiy va uchastka saylov komissiyalari uchun ovoz berish, ovozlarni sanab chiqish va natijalarni jadvalga solish tartib-qoidalarini to'g'ri amalga oshirishni ta'minlash maqsadida yanada samarali va ta'sirchan o'quv dasturlarini ishlab chiqishi kerak. Markaziy saylov komissiyasi saylov komissiyalari xodimlarini tegishli tarzda o'qitishni takomillashtirishi, bunda saylovchilar ro'yxati bilan ishlashga va saylov kuni saylovchilarni ro'yxatga olishga alohida e'tibor qaratishi lozim.

I ILOVA: SAYLOVNING YAKUNIY NATIJALARI⁹⁶

Ro'yxatga olingan ovoz beruvchilar soni	20 110 490 (jumladan, xorijda 165 631 kishi)
Berilgan ovozlar soni	15 018 498 (jumladan, xorijda 140 388 kishi)
Yaroqsiz deb topilgan ovozlar soni	72327
Saylovchilar davomati	74,72%

Partiya	Olingan ovozlar soni	Umummilliy saylov okrugida yutilgan o'rinlar	Bir mandatli saylov okruglarida yutilgan o'rinlar	Jami o'rinlar	Foizi %
O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (UzLiDeP)	5194041	26	38	64	42,7
Milliy tiklanish demokratik partiyasi (MTDP)	2812493	14	15	29	19,3
"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi (ASDP)	2420857	12	9	21	14
O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (XDP)	2558016	13	7	20	13,3
O'zbekiston Ekologik partiyasi (EP)	1960764	10	6	16	10,7
Jami	14946171	75	75	150	100

⁹⁶ MSK tomonidan e'lon qilingan yakuniy natijalar bo'yicha ma'lumotlar.

II ILOVA: XALQARO SAYLOVLARNI KUZATISH MISSIYASI KUZATUVCHILARI RO'YXATI

YXHT Parlament assambleyasining qisqa muddatli kuzatuvchilari

Azay	Guliyev	Maxsus koordinator	Ozarbayjon
Sargis	Xandanyan	Delegatsiya rahbari	Armaniston
Kristin	Shvars Fuks	Parlament a'zosi	Avstriya
Maykl	Vanner	Parlament a'zosi	Avstriya
Gaya	Mammadov	Parlament a'zosi	Ozarbayjon
Zvonimir	Troskot	Parlament a'zosi	Xorvatiya
Sandra	Krpan	Parlament a'zosi	Xorvatiya
Danitsa	Barishevich	Parlament a'zosi	Xorvatiya
Kyriakos	Hadjjiyanni	Parlament a'zosi	Kipr
Lusie	Potuckova	Parlament a'zosi	Chexiya
Yens	Meilvang	Parlament a'zosi	Daniya
Mati	Raidma	Parlament a'zosi	Estoniya
Eduard	Odinets	Parlament a'zosi	Estoniya
Malte	Kaufmann	Parlament a'zosi	Germaniya
Emanuel	Loperfido	Parlament a'zosi	Italiya
Alessandro	Alfieri	Parlament a'zosi	Italiya
Vinsenzo	Amendola	Parlament a'zosi	Italiya
Juzeppe	De Kristofaro	Parlament a'zosi	Italiya
Eugenio	Zoffili	Parlament a'zosi	Italiya
Fabrizio	Komba	Parlament a'zosi	Italiya
Valeria	Galardini	Parlament a'zosi	Italiya
Anna	Bilotti	Parlament a'zosi	Italiya
Stefania	Perozzi	Parlament a'zosi	Italiya
Susanna Donatella	Kampione	Parlament a'zosi	Italiya
Alibek	Nautiyev	Parlament a'zosi	Qozog'iston
Yelena	Nedovich	Parlament a'zosi	Chernogoriya
Amer	Smailovich	Parlament a'zosi	Chernogoriya
Iva	Lakichevich	Parlament a'zosi	Chernogoriya
Sverre	Mirli	Parlament a'zosi	Norvegiya
Kazimierz	Kleina	Parlament a'zosi	Polsha
Jachek	Vloshowich	Parlament a'zosi	Polsha
Kristof	Gadovski	Parlament a'zosi	Polsha
Konrad	Frishztak	Parlament a'zosi	Polsha
Kristof	Truskolaski	Parlament a'zosi	Polsha
Florin-Aleksandru	Alekse	Parlament a'zosi	Romania
Artemi Visent	Rallo	Parlament a'zosi	Ispaniya
Magnus	Oskarsson	Parlament a'zosi	Shvetsiya
Anne Marie-Louise	Hänel Sandström	Parlament a'zosi	Shvetsiya
Simona	De Chiutiis	Parlament a'zosi	Shvetsiya
Byorn	Soder	Parlament a'zosi	Shvetsiya
Andreas	Lennkvist Manrikuez	Parlament a'zosi	Shvetsiya
Ulrika	Vesterlund	Parlament a'zosi	Shvetsiya
Halis	Dalkilich	Parlament a'zosi	Turkiya
Murat	Baybatur	Parlament a'zosi	Turkiya

Hakan	Erdogan	Parlament a'zosi	Turkiya
Artur	Gerasimov	Parlament a'zosi	Ukraina
Pavlo	Frolov	Parlament a'zosi	Ukraina
Serhii	Alieksieiev	Parlament a'zosi	Ukraina
Rupa	Huq	Parlament a'zosi	Birlashgan
Janis	Helvig	Parlament a'zosi	Qirollik
			AQSH
Farimah	Daftary	Delegatsiya xodimi	Fransiya
Freyja	Kochi	Delegatsiya xodimi	Germaniya
Huan Karlos	Leunissen	Delegatsiya xodimi	Niderlandiya
Anjelika	Ivanishcheva	Delegatsiya xodimi	Rossiya
Manuchekhr	Salokhudinov	Delegatsiya xodimi	Federatsiyasi
			Tojikiston

DIIHBning qisqa muddatli kuzatuvchilari

Brindlmayer	Gertrude	Avstriya
Vinkelhofer	Richard	Avstriya
Mirzayev	Ayaz	Ozarbayjon
Duffková	Katerina	Chexiya
Faltys	Jan	Chexiya
Frank	Petr	Chexiya
Kramesova	Katerina	Chexiya
Kutilova	Marketa	Chexiya
Orisko	Josef	Chexiya
Staňková	Tereza	Chexiya
Kasier	Hilda	Daniya
Krone	Mirja	Daniya
Hjortlund	Birgit	Daniya
Hokser	Jorgen	Daniya
Poulsen	Ingrid	Daniya
Poulsen	Maykl	Daniya
Soerensen	Bjarno	Daniya
Strand	Michael	Daniya
Vauhkonen	Mikko	Finlandiya
Vieno	Irmeli	Finlandiya
Bérat	Pierre	Fransiya
Kaballero	Joselyne	Fransiya
Drichi	Nordin	Fransiya
Dzivniel	Viktoria	Fransiya
Ferrari	Thomas	Fransiya
Ganoux	Florense	Fransiya
Oberson	Frederik	Fransiya
Pellerin	Rémi	Fransiya
Romano	Viktoria	Fransiya
Tourancheau	Isabelle	Fransiya
Vier	Amaël	Fransiya
Bendeliani	Marina	Gruziya

Baykal	Asena	Germaniya
Besselmann	Peter	Germaniya
Böhme	Markus	Germaniya
Dr. Salih	Chaban	Germaniya
Eichstaedt	Dominika	Germaniya
Feo Kutsch	Katia	Germaniya
Goldstein	Mendel	Germaniya
Grundbacher	Kim	Germaniya
Haendel	Harald	Germaniya
Heidrich	Jörg	Germaniya
Hofmann	Dagmar	Germaniya
Hortig	Martin	Germaniya
Kuehl	Maykl	Germaniya
Lingenthal	Rainer	Germaniya
Maiveg	Andrea	Germaniya
Mosharof	Lorena	Germaniya
Niessen	Sebastian	Germaniya
Nolting	Feliks	Germaniya
Pysarenko	Anna	Germaniya
Schiermeyer	Ingo	Germaniya
Schiller	Stefan	Germaniya
Schöneberg	Gesa	Germaniya
Schvalb	Yens	Germaniya
Sell	Kristina	Germaniya
Temme	Marlies	Germaniya
Theilmann	Susanne	Germaniya
Träger-Steintjes	Florian	Germaniya
Vorrath	Judith	Germaniya
Volff	Martin	Germaniya
Barker	Patrisia	Irlandiya
Byrne	Eibhlin	Irlandiya
Daly	Thomas	Irlandiya
Ní Fhágain	Órla	Irlandiya
Vard	Margaret	Irlandiya
Faksin	Ilaria	Italiya
Lazzarich	Diego	Italiya
Martini	Ermina	Italiya
Aleksandr	Pieter	Niderlandiya
Lievense	Robbert	Niderlandiya
Schokkenbroek	Johanna	Niderlandiya
Kristoffersen	Karin	Norvegiya
Fordal	Lars Georg	Norvegiya
Hoff	Kristin	Norvegiya
Vessel	Nina	Norvegiya
Krzyżanovska	Zuzanna	Polsha
Marszevski	Mariusz	Polsha
Ozierski	Przemyslav	Polsha
Polak-Żołądkiewish	Magdalena	Polsha
Popławski	Marchin	Polsha
Ryszkovska	Marzena	Polsha
Sauer	Adam	Polsha
Sidorowish	Magdalena	Polsha

Vierzbicki	Andrzej	Polsha
Zbichiak	Bogumił	Polsha
Zdaniuk	Bartłomiej	Polsha
Aynetdinova	Diana	Rossiya Federatsiyasi
Aisin	Arsen	Rossiya Federatsiyasi
Alekseev	Andrey	Rossiya Federatsiyasi
Baburkin	Sergey	Rossiya Federatsiyasi
Baryshev	Artem	Rossiya Federatsiyasi
Bedritskiy	Aleksandr	Rossiya Federatsiyasi
Chizhov	Vasily	Rossiya Federatsiyasi
Degtiarev	Konstantin	Rossiya Federatsiyasi
Demidova	Nataliya	Rossiya Federatsiyasi
Fedorinov	Aleksandr	Rossiya Federatsiyasi
Filatov	Ivan	Rossiya Federatsiyasi
Golubkova	Nataliya	Rossiya Federatsiyasi
Gudkova	Alena	Rossiya Federatsiyasi
Kalashnikova	Olga	Rossiya Federatsiyasi
Xalyapina	Alesya	Rossiya Federatsiyasi
Kharitonova	Mariya	Rossiya Federatsiyasi
Khodyreva	Iulia	Rossiya Federatsiyasi
Kondratovich	Gleb	Rossiya Federatsiyasi
Konovalova	Anastasia	Rossiya Federatsiyasi
Kudeneeva	Yuliya	Rossiya Federatsiyasi
Kulbanova	Irina	Rossiya Federatsiyasi
Kulikov	Dmitriy	Rossiya Federatsiyasi
Leshchinskaia	Sofia	Rossiya Federatsiyasi
Merinov	Vladimir	Rossiya Federatsiyasi
Mosin	Alexey	Rossiya Federatsiyasi
Novikov	Roman	Rossiya Federatsiyasi
Ostashkova	Tatiana	Rossiya Federatsiyasi
Pritchinn	Stanislav	Rossiya Federatsiyasi
Ratushniak	Igor	Rossiya Federatsiyasi
Revutskii	Anton	Rossiya Federatsiyasi
Sachuk	Dmitriy	Rossiya Federatsiyasi
Satiukova	Yelena	Rossiya Federatsiyasi
Shaktar-ool	Igor	Rossiya Federatsiyasi
Shatokhina	Larisa	Rossiya Federatsiyasi
Shirkunov	Roman	Rossiya Federatsiyasi
Studenikin	Aleksandr	Rossiya Federatsiyasi
Taran	Kira	Rossiya Federatsiyasi
Telushkin	Andrey	Rossiya Federatsiyasi
Topolskii	Aleksei	Rossiya Federatsiyasi
Umrikhina	Elizaveta	Rossiya Federatsiyasi
Uvarov	Ilia	Rossiya Federatsiyasi
Verkholtantseva	Ksenia	Rossiya Federatsiyasi
Kristofik	Roman	Slovakiya
López-Medel Baskones	Jesus	Ispaniya
Suarez Serrano	Hose María	Ispaniya
Aule	Yan Roger	Shvetsiya
Baklund	Emma	Shvetsiya
Karlberg Bengtsson	Yvonne	Shvetsiya
Ekstedt	Karl	Shvetsiya

Hedvall	Agneta	Shvetsiya
Hols	Lars Jonas	Shvetsiya
Larserud	Stina	Shvetsiya
Larsson	Hans	Shvetsiya
Lindblom	Sara	Shvetsiya
Markus	Tatjana	Shvetsiya
Messing	Kjell	Shvetsiya
Nordin	Byorn	Shvetsiya
Öholm	Karl	Shvetsiya
Sacko Nilsen	Ina	Shvetsiya
Svensson	Yens	Shvetsiya
Bosshard	Michel	Switzerland
Egger Maldonado	Barbara	Switzerland
Estermann	Johanna	Switzerland
Huerlimann	Maja	Switzerland
Störk	Jürgen	Switzerland
Ziegler	Stefan	Switzerland
Ekiji	Ufuk	Turkiya
Yildirim	Seyfi	Turkiya
Addison	Justin	Birlashgan Qirollik
Batziou	Athanasia	Birlashgan Qirollik
Birch	Jennifer	Birlashgan Qirollik
Karnson	Sherrida	Birlashgan Qirollik
Klayton	John	Birlashgan Qirollik
Kuk	Deborah	Birlashgan Qirollik
Korral	Eva	Birlashgan Qirollik
Kosta Figueiredo	Joao	Birlashgan Qirollik
Kowley	Madeleine	Birlashgan Qirollik
Fagelson	Judith	Birlashgan Qirollik
Greider	Alis	Birlashgan Qirollik
Harris	Yesim	Birlashgan Qirollik
Harrison	David	Birlashgan Qirollik
Hazell	Thomas	Birlashgan Qirollik
Houlton	Andryu	Birlashgan Qirollik
Jandu	Parmvir	Birlashgan Qirollik
Jones	Ben	Birlashgan Qirollik
Lorens	Daniel	Birlashgan Qirollik
Malik	Shaama	Birlashgan Qirollik
Pegler	Mark	Birlashgan Qirollik
Qureshi	Murad	Birlashgan Qirollik
Ruane	Kristopher	Birlashgan Qirollik
Skott-Dunne	Naomi	Birlashgan Qirollik
Sutkliff	Tara-Jane	Birlashgan Qirollik
Thomas	Alis	Birlashgan Qirollik
Uberi	Mariam	Birlashgan Qirollik
Vay	Filippa	Birlashgan Qirollik
Vesson	Paul	Birlashgan Qirollik
Zmroczek	Sally	Birlashgan Qirollik
Ajdari	Bujar	AQSH
Amador	Jorge	AQSH
Banu	Bogdan	AQSH
Bartos	Omar	AQSH

Belousof	Eugene	AQSH
Bourguignon	Jennifer	AQSH
Bovs	Stefen	AQSH
Brandt	Kristopher	AQSH
Brickner	Maykl	AQSH
Deyo	Lisa	AQSH
Donahue	Viktoriya	AQSH
Eleusizov	Zamir	AQSH
Funcheon	Gloria	AQSH
Gatto	Thomas	AQSH
Ghelli	Samantha	AQSH
Gridinsky	Endryu	AQSH
Helgoe	Barron	AQSH
Karppi	Aleksandra	AQSH
Kovalski	Tamara	AQSH
Letteney	David	AQSH
Lindahl	Hannah	AQSH
Merrill	Ann	AQSH
Mitchell	John	AQSH
Mykytyn	Renata	AQSH
Paarlberg	Maykl	AQSH
Parkison	Kathy	AQSH
Reynolds	Bradley	AQSH
Schein	Deborah	AQSH
Schneider	Kimberly	AQSH
Skott	Timothy	AQSH
Sutphin	Erik	AQSH
Villegas	Daniel	AQSH
Villiams	Audrey	AQSH
Yang	Kana	AQSH
Zoubir	Nadia	AQSH

DIIHB uzoq muddatli kuzatuvchilari

Hynek	Kristian Oliver	Avstriya
Svitil	Pavel	Chexiya
Uruba	Valdemar	Chexiya
Skovbo	Stig	Daniya
Godbillon	Vincent	Fransiya
Villiams	Benedikt	Fransiya
Hausmann	Maykl	Germaniya
Hötger	Kati	Germaniya
Sakenheim	Rudolf	Germaniya
Boland	Meri	Irlandiya
Berardinelli	Diletta	Italiya
Erdenebat	Tsengel	Mongoliya
Van Rhijn	Ruth	Niderlandiya
Paus	Nikolay	Norvegiya
Petersen	Carl	Norvegiya
Agronomov	Vladimir	Rossiya Federatsiyasi
Bogdanova	Kristina	Rossiya Federatsiyasi

Diakonov	Boris	Rossiya Federatsiyasi
Rigin	Sergey	Rossiya Federatsiyasi
Buettner	Gabriela	Shveytsariya
Karlen	Marie-Therese	Shveytsariya
Pashkova	Nadiia	Ukraina
Bruks	Martin	Birlashgan Qirollik
Ahn	Shane	AQSH
Farley	Stefen	AQSH
O'Rourke	Iris	AQSH

DIIHB asosiy jamoasi

Veyk	Douglas	AQSH
Shirinov	Rashad	Ozarbayjon
Isakova	Gunel	Ozarbayjon
Chaliadzinski	Aliaksandr	Belarus
Rymer	Thomas	Kanada
Frakassetti	Jasmina	Xorvatiya
Ioannou	Dimitra	Gretsiya
Tesfamariam	Pietro	Italiya
Kim	Marina	Qozog'iston
Bader	Maks	Niderlandiya
Ryza	Dorota	Polsha
Drózd	Mikołaj Ignacy	Polsha
Galkovski	Michał	Polsha
Ovejurdiyev	Ruslan	Turkmaniston
Taylor	Kris	Birlashgan Qirollik

DIIHB HAQIDA

YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (DIIHB) YXHTning asosiy instituti bo'lib, uning vazifasi ishtirokchi davlatlarga "inson huquqlari va asosiy erkinliklarini to'liq hurmat qilinishini ta'minlash, qonun ustuvorligiga rioya qilish, demokratiya tamoyillarini ilgari surish va (...), demokratik institutlarni mustahkamlash va himoya qilish, shuningdek, butun jamiyatda bag'rikenglikni targ'ib qilish"dan iborat (1992-yilgi Xelsinki sammiti hujjati). Bu YXHTning inson mezonlari deb ataladi.

DIIHB Varshavada (Polsha) 1990-yildagi Parij sammitida Erkin saylovlar byurosi sifatida tashkil etilgan va 1991-yil may oyida ish boshlagan. Bir yil o'tgach, idora nomi inson huquqlari va demokratlashtirishni o'z ichiga olgan kengaytirilgan vakolatni aks ettirish uchun o'zgartirildi. Bugungi kunda u yerda 150 dan ortiq xodim faoliyat ko'rsatadi.

DIIHB Yevropadagi **saylovlarni kuzatish** sohasida yetakchi agentlik hisoblanadi. Har yili u YXHT mintaqasidagi saylovlar YXHT majburiyatlari, demokratik saylovlar bo'yicha boshqa xalqaro majburiyatlar va standartlar hamda milliy qonunchilikka muvofiq o'tganligini baholash uchun minglab kuzatuvchilarni joylashtirishni muvofiqlashtiradi va tashkil qiladi. Uning o'ziga xos metodologiyasi saylov jarayonini yaxlit va chuqur o'rganish imkonini beradi. Ko'makchi loyihalar orqali DIIHB ishtirokchi davlatlarga saylov tizimini yaxshilashda yordam beradi.

Ofisning demokratlashtirish bo'yicha faoliyati quyidagilardan iborat: qonun ustuvorligi, qonunchilikni qo'llab-quvvatlash, **demokratik boshqaruv**, migratsiya va harakat erkinligi va gender tengligi. DIIHB har yili demokratik tuzilmalarni rivojlantirishga intilib, bir qator maqsadli yordam dasturlarini amalga oshiradi.

DIIHB, shuningdek, ishtirokchi davlatlarga YXHTning inson mezonlari bo'yicha majburiyatlariga muvofiq **inson huquqlari va asosiy erkinliklarini** ilgari surish va himoya qilish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda ko'maklashadi. Bunga terrorizmga qarshi kurashda inson huquqlari, odam savdosi jabrdiydalarining inson huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, inson huquqlari bo'yicha ta'lim va treninglar, inson huquqlari monitoringi va hisobdorlik, shuningdek, inson huquqlari va xotin-qizlar xavfsizligi kabi mavzular bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish, salohiyatni oshirish va ekspert materiallari bilan ta'minlash maqsadida turli hamkorlar bilan yaqindan ishlash orqali erishiladi.

Bag'rikenglik va kamsitmaslik sohasida DIIHB ishtirokchi davlatlarga nafratga asoslangan jinoyatlar va irqchilik, ksenofobiya, antisemitizm va murosasizlikning boshqa shakllariga qarshi choralarni kuchaytirishda yordam beradi. DIIHBning bag'rikenglik va kamsitmaslik bilan bog'liq faoliyati quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan: qonunchilik; huquqni muhofaza qilish organlarini tayyorlash; nafratga asoslangan jinoyatlar va hodisalarni kuzatish, hisobot berish va ularga tegishli javob berish; shuningdek, bag'rikenglik, hurmat va o'zaro tushunishni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim faoliyati.

DIIHB ishtirokchi davlatlarga ularning **roma va sinti** (turli hududlarda yashovchi lo'li elatining nomlanishi) bo'yicha siyosatiga oid maslahatlar beradi. Bu roma va sinti elatlari jamoalari o'rtasida salohiyatni oshirish va aloqa o'rnatishni targ'ib qiladi hamda bu elatlarning turli siyosatlarini ishlab chiqish organlarida ishtirok etishini rag'batlantiradi.

DIIHBning barcha faoliyati YXHTga a'zo davlatlar, YXHT institutlari va obyektlardagi ishlar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar bilan yaqin muvofiqlashtirish va hamkorlikda amalga oshiriladi.

Batafsil ma'lumot uchun DIIHB veb-saytiga kirishingiz mumkin: (www.osce.org/odihr).